
RAQAMLI TARAQQIYOT VA BIOIQTISODIYOT

Ilmiy elektron jurnal



III-son, 2025

"RAQAMLI TARAQQIYOT VA BIOIQTISODIYOT"
ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIR KENGASHI TARKIBI

Tahrir kengash raisi: i.f.d., prof. Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich

Bosh muharrir: i.f.d., prof. To'rayev Shavkat Shuxratovich

Tahrir kengashi a'zolari

i.f.d., prof. Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich
i.f.d., prof. To‘rayev Shavkat Shuxratovich
t.f.d., prof. Yaxshibayev Doniyor Sultonbayevich
t.f.d., prof. Sultanov Djamshid Baxodirovich
t.f.d., prof. Tashev Komil Axmatovich
i.f.d., dots. Saitkamolov Muhammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li
i.f.n., dots. Iminova Nargizaxon Akramovna
i.f.d., prof. Karlibaeva Raya Xodjabayevna
i.f.d., prof. Allayeva Gulchehra Jalgasovna
i.f.d., prof. Yusupxodjayeva Gulchehra Bahodirxodjayevna
i.f.d., prof. Muhitdinova Kamola Alisherovna
i.f.d., prof. Tillaxodjayev Muzaffarxo‘ja Abdupattaxovich
i.f.d., dots. Ismoilova Gulnora Fayzullayevna
i.f.d., prof. Salomova Sarvinoz Salimovna
i.f.f.d., dots. Xudaynazarova Dilorom Xayrullayevna
i.f.f.d., dots. Bobojonova Zarnigor Shokirovna
i.f.f.d., dots.Taraxtiyeva Gulmira Kulbayevna
i.f.f.d., dots. Iminov Akbarjon Odiljon o‘g‘li
i.f.f.d., v.b. dots. Xasanova Nigora Asqarovna
i.f.f.d., v.b. dots. Abdimo‘minova Saodat Taxirjonovna
i.f.f.d., v.b. dots. Abduturapova Dildora Farhodjon qizi
i.f.f.d., v.b. dots. Maxmudjanov Sarvar Ulugbekovich
i.f.f.d., v.b. dots. Korabayev Eldor Alijonovich
i.f.f.d., v.b. dots. Raxmatullayev Adhamxon Habibullo o‘g‘li
i.f.f.d., v.b. dots. Raximova Umida Abduraimovna
i.f.f.d., v.b. dots. Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi
i.f.f.d., v.b. dots. Kurbanova Maftuna Lazizovna
i.f.f.d., v.b. dots. Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich
i.f.f.d., v.b. dots. Zuxurova Nargiza Abdusattarovn
i.f.f.d., PhD. Sobirov Shaxzod Ozod o‘g‘li

MUNDARIJA

Murodova Z.	Korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	**4**
Iminova N.	Strategik rejalashtirish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning innovatsion yo‘nalishlari	**15**
Xudaynazarova D.	Qishloq turizmini rivojlanishida ekologik madaniyatning roli	**27**
Saidov F.	Sug‘urta: kecha, bugun va ertaga	**37**
Bobojonova Z.	Energetika sohasida raqamli transformatsiya va iqtisodiy samaradorlik sinergiyasi - yagona iqtisodiy sinergiya (SES) modeli	**51**
Akramova G.	Роль государства в повышении конкурентоспособности и привлекательности ремесленных изделий в условиях туризма Узбекистана	**60**
Zuxurova N.	Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini baholashning konseptual-metodologik modeli	**70**
Usmanxodjaeva S.	O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar bozorining tamoyillari va rivojlanishi	**78**
Shakhriddinova S.	Overcoming e-commerce barriers in developing markets	**89**
Janaydarova K.	Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy texnologiyalarni qo‘llashning xalqaro tajribasi	**99**
Tajiddinov J.	Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy texnologiyalar yordamida kreditlash va raqamlashtirish	**110**

I.

Iqtisodiyot tarmoqlarida ilmiy-nazariy asoslar va uslubiy tadqiqotlar asosida raqamli taraqqiyot

KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
AKT sohasida Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
1-kurs tayanch doktoranti Murodova Zilola
zilolamurodova2121@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari chuqur tahlil qilingan. Raqamlashtirish jarayonining korxona boshqaruvi, kompetensiya modeli, HR-Tech texnologiyalari, xodimlar malakasini oshirish tizimlari va raqamli ko'nikmalar dinamikasiga ta'siri ilmiy manbalar asosida o'rganilgan. Maqolada World Economic Forum (2023), McKinsey (2022), Deloitte (2022), OECD (2021) hamda O'zbekiston Statistika agentligi (2023) ma'lumotlari asosida global va milliy tendensiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Xodimlarning raqamli savodxonligi, analitik fikrlashi, texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari korxona raqobatbardoshligining asosiy omili ekani asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda raqamli o'quv ekotizimlari, HR-Analytics, kompetensiya xaritalash va AI asosida baholash tizimlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Yakunda inson kapitalining raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ innovatsion rivojlanishning strategik drayveri ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar.

Raqamli transformatsiya, Inson kapitali, Raqamli ko'nikmalar, HR-Tech, Kompetensiya modeli, Malaka oshirish, Raqamli savodxonlik, Analitik fikrlash, Sun'iy intellect, HR-Analytics, Big Data, E-learning, Masofaviy o'qitish,Digital Learning, Raqamli iqtisodiyot, Innovatsion boshqaruv.

Annotation. This article provides an in-depth scientific analysis of modern approaches to the development of human capital in enterprises within the context of digital transformation. The study examines the impact of digitalization on corporate

management, competency models, the implementation of HR-Tech technologies, employee upskilling systems, and the dynamics of digital skill development, drawing on both international and national sources. The research relies on data from the World Economic Forum (2023), McKinsey (2022), Deloitte (2022), OECD (2021), and the Statistics Agency of Uzbekistan (2023), enabling a comparative assessment of global trends. The article substantiates that employees' digital literacy, analytical thinking, and technological competencies have become key drivers of corporate competitiveness. Research findings highlight the importance of integrating digital learning ecosystems, HR-Analytics, competency mapping, and AI-based assessment tools into enterprise management practices. Ultimately, the article concludes that human capital serves as a strategic factor for innovative development in the digital economy.

Keywords. Digital transformation, Human capital, Digital skills, HR-Tech, Competency model, Upskilling, Digital literacy, Analytical thinking, Artificial intelligence, HR-Analytics, Big Data, E-learning, Remote learning, Digital learning, Digital economy, Innovation management, Talent management, Data-driven HR, Digital platforms, Corporate training, AI-based assessment, Digital competencies, Workforce development, KPI monitoring, Digital ecosystem.

Аннотация. В данной статье представлен углублённый научный анализ современных подходов к развитию человеческого капитала на предприятиях в условиях цифровой трансформации. Исследование охватывает влияние цифровизации на корпоративное управление, модель компетенций, внедрение HR-Tech технологий, системы повышения квалификации сотрудников, а также динамику формирования цифровых навыков. В работе использованы данные международных организаций, таких как World Economic Forum (2023), McKinsey (2022), Deloitte (2022), OECD (2021), а также статистические сведения Агентства статистики Узбекистана (2023), что позволило осуществить сравнительный анализ глобальных тенденций. В статье обосновано, что цифровая грамотность сотрудников, аналитическое мышление и технологические компетенции становятся ключевыми драйверами конкурентоспособности предприятий. Результаты исследования подчеркивают важность интеграции цифровых образовательных экосистем, HR-аналитики, картирования компетенций и систем оценки на основе искусственного интеллекта. В заключение делается вывод о том, что человеческий капитал

является стратегическим фактором инновационного развития в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова. Цифровая трансформация, человеческий капитал, цифровые навыки, HR-Tech, модель компетенций, повышение квалификации, цифровая грамотность, аналитическое мышление, искусственный интеллект, HR-аналитика, Big Data, электронное обучение, дистанционное обучение, цифровое обучение, цифровая экономика, инновационный менеджмент, Talent Management, управление на основе данных, цифровые платформы, корпоративное обучение, AI-оценивание, цифровые компетенции, развитие персонала, мониторинг KPI, цифровая экосистема.

KIRISH. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi barcha sohalarga, jumladan, korxonalarda inson kapitalini boshqarish tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonida korxonalar oldida nafaqat texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, balki xodimlarning kompetensiyalarini zamon talabiga mos shakllantirish vazifasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki inson kapitalining raqamli savodxonligi, moslashuvchanligi va innovatsion fikrlashi korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini boshqarish mexanizmlarining qayta ko‘rib chiqilishi, xodimlar malakasini oshirishning zamonaviy shakl va modellarini joriy etish, yuqori samaradorlikka ega HR-Tech tizimlarini amaliyotga tatbiq etish jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korxonalar raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun xodimlar bilim va malakasining mosligi hal qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham raqamli kompetensiyalarni shakllantirish strategiyasi har bir korxonaning uzoq muddatli rivojlanish dasturida alohida o‘rin egallaydi.

Mavjud adabiyotlar va xalqaro tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini boshqarishning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: institutsional (korxona boshqaruvi), kompetensiyaviy (raqamli ko‘nikmalar, analitik fikrlash, moslashuvchanlik), texnologik (HR-Tech, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar), motivatsion (raqamli KPI, elektron baholash tizimlari) va o‘quv-amaliy (onlayn treninglar, e-learning platformalari) yo‘nalishlaridir. Xususan, sun’iy intellekt va HR-Analytics texnologiyalarining keng joriy etilishi

xodimlar faoliyatini baholash, malaka zaxirasini aniqlash, kompetensiyalarni xaritalash (competency mapping) jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

O‘zbekiston misolida ham korxonalarda inson kapitalini raqamlashtirish bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, o‘quv jarayonlarini raqamli platformalarga o‘tkazish, xodimlar uchun masofaviy treninglar tashkil etish, korxona ichki jarayonlarini elektron boshqaruv tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha qator samarali amaliy ishlar olib borilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda xodimlarning raqamli ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha qisqa muddatli onlayn kurslarda ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Bu jarayon xodimlarning mehnat unumdorligini va korxonadagi innovatsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, rivojlangan davlatlarda korxonalar inson kapitalini boshqarishda “Inson markazidan kelib chiqadigan yondashuv”ni qo‘llashi natijasida yuqori ko‘rsatkichlarga erishilayotgani kuzatiladi. Masalan, korporativ o‘quv ekotizimlarining joriy etilishi, doimiy o‘qitish va qayta tayyorlash strategiyalarining ishlab chiqilishi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda ham xodimlar kompetensiyasini baholash va rivojlantirish tizimini standartlashtirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar faollashmoqda.

World Economic Forumning “Future of Jobs Report 2023” hisobotiga ko‘ra 2030-yilgacha dunyo bo‘yicha 97 million yangi raqamli ko‘nikmalarga asoslangan ish o‘rinlari yaratiladi. McKinsey & Company (2022) ma’lumotlariga ko‘ra xodimlarning kamida 30–40 foizi kelgusi o‘n yillikda o‘z kompetensiyalarini tubdan yangilashi zarur. Bu esa korxonalarda inson kapitalini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari muhimligini oshiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida korxonalarda inson kapitalini boshqarish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari, kompetensiyalar transformatsiyasi va HR-Tech yechimlarining samaradorligi bo‘yicha xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu adabiyotlar sharhida inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, raqamli transformatsiyaning mehnat bozori va korxona faoliyatiga ta’siri hamda kadrlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha asosiy ilmiy qarashlar tahlil qilindi.

Xorijiy olimlar, asosan, inson kapitalining raqobatbardoshlikdagi o‘rni, kompetensiyalar tarkibining o‘zgarishi va korxonalar uchun raqamlashtirishning strategik ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadilar. McKinsey Global Institute tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, “kelgusi o‘n yillikda xodimlarning kamida 30–40 foizi yangi raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi talab etiladi. An’anaviy ko‘nikmalar bilan raqobatbardosh bo‘lish imkonsiz bo‘lib bormoqda” [1]. World Economic Forum (WEF) ekspertlari “Future of Jobs Report 2023” hisobotida raqamli kompetensiyalar, analitik fikrlash, texnologiyalarni boshqarish kabi ko‘nikmalar global mehnat bozorining asosiy drayverlari sifatida shakllanayotganini ta’kidlaydi[2].

Deloitte kompaniyasi tomonidan olib borilgan “Global Human Capital Trends” tadqiqotida, “korxonalarda HR-Tech tizimlaridan foydalanish inson kapitalini boshqarish samaradorligini 15–25 foizga oshiradi, xodimlar faoliyati haqidagi katta ma’lumotlarga asoslangan qarorlar esa korxona barqaror rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda” deya ta’kidlanadi [3]. OECD olimlarining fikricha, “raqamli iqtisodiyotda inson kapitali sifatini belgilovchi asosiy omillar - moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash va analitik yondashuvdir. Bu kompetensiyalarni o‘z vaqtida shakllantira olmagan korxonalar iqtisodiy o‘sish sur’atlarida ortda qoladi” [4].

Milliy tadqiqotchilar tomonidan ham korxonalarda inson kapitali va raqamli transformatsiya jarayonining o‘ziga xos jihatlari keng yoritilgan. A. Mamatqulovning fikriga ko‘ra, “O‘zbekiston korxonalarida HR-Tech tizimlarini joriy etish, xodimlarni elektron baholash, elektron hujjatlashtirish va masofaviy o‘qitish amaliyoti jadal rivojlanib, inson kapitalini boshqarishda shaffoflik va samaradorlikni ta’minlamoqda” [5]. N. Bozorov esa “raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha korporativ o‘quv platformalarining rivojlanishi xodimlarning malaka o‘sishi va innovatsion salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda” deya e’tirof etadi [6].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda korxonalarda kompetensiya modelini joriy etish, xodimlar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va raqamli KPI tizimlarining amaliy natijalari ham tahlil qilingan. M. Xolmatovaning ta’kidlashicha, “sun’iy intellekt asosida shakllangan avtomatik baholash tizimlari inson resurslarini boshqarishda subyektivlikni kamaytiradi, xodimlarning professional rivojlanish trayektoriyasini aniq belgilashga imkon yaratadi” [7].

Ushbu ilmiy manbalardan ko‘rinib turibdiki, raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarda inson kapitalini boshqarish jarayoni faqat malaka oshirish bilan

chegaralanib qolmay, balki texnologik, tashkiliy, motivatsion va kompetensiyaviy yondashuvlarning kompleks birligini talab qiladi. Ammo shunga qaramay, O‘zbekiston korxonalarida HR-Analytics, kompetensiyalarni xaritalash, raqamli o‘quv ekotizimlari, AI-based HR tizimlarini joriy etish bo‘yicha ba’zi masalalar hali chuqur ilmiy tadqiqotni talab qiladi. Jumladan, xodimlar bilan o‘zaro ishonch asosidagi raqamli boshqaruv modeli, korxonalarda raqamli etika talablarining shakllanishi, xodimlarning raqamli stress darajasini kamaytirish va moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar strategik ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, strukturaviy-tizimli yondashuv va retrospektiv tahlil kabi ilmiytadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Maqolada korxonalarda raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini rivojlantirish jarayonlari, kompetensiyalar tarkibidagi o‘zgarishlar, HR-Tech texnologiyalarining joriy etilishi hamda inson resurslarini boshqarishning yangi yondashuvlari chuqur o‘rganildi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv orqali inson kapitalining tarkibiy elementlari - raqamli ko‘nikmalar, analitik fikrlash, texnologiyalar bilan ishlash madaniyati, jamoaviy interaktivlik va innovatsion salohiyatning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy kadrlar boshqaruvi modeli bilan raqamli HR-Tech ekotizimining imkoniyatlari solishtirildi, masalan, HR-Analytics, sun’iy intellekt asosida tanlov va baholash, masofaviy o‘qitish platformalarining samaradorligi ko‘rib chiqildi.

Retrospektiv tahlil usuli asosida inson kapitali rivojlanishining tarixiy dinamikasi, kompetensiya modeli evolyutsiyasi va korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonining bosqichlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv tadqiqotda raqamlashtirish jarayonida inson kapitalining rolini chuqur anglashga yordam berdi.

Mazkur metodlardan foydalangan holda nazariy ma’lumotlar amaliy jarayonlar bilan bog‘landi, xususan, korxonalarda raqamli o‘qitish tizimlari, elektron baholash platformalari, kompetensiya xaritalash mexanizmlari va HR-Tech tizimlarining samaradorlikka ta’siri baholandi. Tadqiqotning mantiqiy yo‘nalishi abstrakt-induktiv usul orqali shakllantirildi, ya’ni xalqaro hisobotlar, statistik ma’lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ular asosida korxonalarda inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy xulosa va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Global mehnat bozorida raqamli kompetensiyalar bo‘yicha talab keskin ortmoqda. McKinsey (2022) tadqiqotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha xodimlarning 30–40 foizi 2030-yilgacha yangi texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganishi kerak [8].

WEF (2023) eng talab yuqori bo‘lgan kompetensiyalar ro‘yxatini keltiradi:

-analitik fikrlash;

-raqamli savodxonlik;

-texnologiyalarni boshqarish;

-kreativlik sun'iy intellekt bilan ishlash.

Deloitte (2022) “Global Human Capital Trends” hisobotida HR-Tech vositalari xodimlar samaradorligini 15–25 foiz oshirgani qayd etiladi [9]

O‘zbekiston Statistika agentligi (2023) ma’lumotlariga ko‘ra xodimlarning 35–40 foizi raqamli savodxonlikning minimal talablariga javob beradi [10]

Bu esa raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha ichki ta'lim tizimlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar 2022-yilda O‘zbekiston va uchta Yevropa davlatlari o‘rtasida raqamli ko‘nikmalar darajasi va internetdan foydalanish qamrovi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu farqlar mamlakatlarning raqamli transformatsiya jarayoniga kirish darajasi, iqtisodiy rivojlanish sur’atlari, ta’lim sifati hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

2022-yilda Shvetsiya (96%), Latviya (90%) va Litva (87%) aholisi internetdan deyarli to‘liq foydalanadi. Bu davlatlarda internet infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan, keng polosali ulanish imkoniyatlari keng, va raqamli xizmatlar hayotning ajralmas qismiga aylangan.

1-jadval

Raqamli transformatsiya jarayonida mamlakatlar o’rtasida 2022-yilda inson kapitalining raqamli ko‘nikmalar darajasi1

Mamlakat	Internet foydalanuvchilar (%)	Yuqori raqamli ko‘nikmalar (%)
O‘zbekiston	65.8%	16%
Shvetsiya	96%	36%

Litva	87%	23%
Latviya	90%	24%

O‘zbekistonda esa internet qamrovi 65.8% bo‘lib, Yevropa davlatlariga nisbatan ancha past. Biroq o‘sish sur’ati barqaror bo‘lib, keyingi yillarda ulanish darajasining oshib borishi raqamli transformatsiya uchun muhim zamin yaratmoqda.

MUHOKAMA. Tahlil natijalari raqamli transformatsiya inson kapitalini boshqarish jarayonida yangi paradigmalarni talab qilishini ko‘rsatdi. OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra [11] raqamli iqtisodiyotga moslashishda rivojlanayotgan mamlakatlarda xodimlarning 55 foizida zarur ko‘nikmalar yetishmaydi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-HR-Analytics asosida qaror qabul qilish;

-kompetensiya xaritalash (Competency Mapping);

-LMS orqali doimiy korporativ o‘qitish;

-AI asosida xodimlarni tanlash va baholash.

IBM Skills Transformation Report [12] ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli treninglarni joriy etgan korxonalar xodimlar samaradorligining sezilarli oshishini qayd etgan. Bularning barchasi inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari qanchalik muhim ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda korxonalarda inson kapitali rivojlanish jarayonini shartli ravishda uch asosiy evolyutsion bosqichga ajratish mumkin:

1 Muallif tomonidan Worldbank ma’lumotlari asosida tuzilgan

1-bosqich: An’anaviy kadrlar boshqaruvi (1991–2010-yillar) .O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida korxonalarda kadrlar siyosati ko‘proq hujjat yuritish, kadrlar hisobini yuritish, mehnat intizomi va ish haqi shakllantirish kabi funksiyalar bilan chegaralangan edi. Bu davrda:

• malaka oshirish tizimi markazlashgan edi;

• raqamli texnologiyalar deyarli qo‘llanilmagan;

• HR bo‘limlari “kadrlar bo‘limi” sifatida faqat ma’muriy vazifalarni bajargan;

• inson kapitali strategik resurs sifatida ko‘rilmagan.

Korxonalar uchun asosiy vazifa - barqaror kadrlar oqimini ta’minlash bo‘lib, raqamli ko‘nikma yoki innovatsion kompetensiyalar iqtisodiyotda talab etilmagan.

2-bosqich: Inson kapitalini modernizatsiya qilish va korporativ treninglarning jadal kengayishi (2011–2018-yillar) Mazkur bosqichda iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi bilan birga, korxonalarda inson resurslarini rivojlantirishga yangicha qarash shakllandi

McKinsey va OECD ma’lumotlariga ko‘ra, aynan shu davrda dunyo bo‘yicha raqamli savodxonlik asosiy kompetensiyalardan biriga aylangan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham IT-ko‘nikmalar bo‘yicha dastlabki treninglar joriy etildi. Korxonalarda HR bo‘limlari strategik rejalashtirishga qo‘shila boshladi.

3-bosqich: Raqamli transformatsiya va HR-Tech tizimlari orqali inson kapitalining innovatsion rivojlanishi (2019-yildan hozirgacha). Bu davr inson kapitalini rivojlantirishda tub burilish davri bo‘ldi.

WEF 2023 ma’lumotiga ko‘ra, eng tez o‘sayotgan ko‘nikmalar - analitik fikrlash, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, murakkab muammolarni hal qilish va AI-kompetensiyalar. O‘zbekistonda ham 2021–2024-yillar davomida raqamli iqtisodiyot rivoji bilan korxonalarda raqamli ko‘nikmalarni oshirishga bo‘lgan talab 2 baravar oshgan.

XULOSA. Raqamli transformatsiya korxonalarda inson kapitalini rivojlantirishning strategik ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishiga aylandi. Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, HR-Tech tizimlarni joriy etish, AI asosida kadrlarni baholash va kompetensiya asosidagi boshqaruv modellarini kuchaytirish korxonalar samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali korxonalarning asosiy raqobat ustunligiga aylanganini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarda inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy o‘sish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish va mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini boshqarish tizimi endilikda faqat an’anaviy kadrlar ish yuritishi bilan cheklanmay, balki strategik rejalashtirish, raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, bilimlarni boshqarish va xodimlar salohiyatini aniqlashga qaratilgan zamonaviy mexanizmga aylangan.

Xodimlar rivoji endi korxona strategiyasining markaziy elementi bo‘lib, raqamli ko‘nikmalar talabining ortishi inson kapitali sifatiga qo‘yilgan talablarni ham sezilarli ravishda oshirmoqda. Korxonalarda HR-raqamlashtirish, masofaviy ish jarayonlari, bilimlarni boshqarish platformalari va raqamli kompetensiyalarni o‘qitish

tizimlarining joriy etilishi korxonaning tashkiliy moslashuvchanligini, innovatsion salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha raqamli transformatsiya quyidagi strategik o‘zgarishlarni namoyon etmoqda:

1. HR jarayonlari strategik resursga aylandi, boshqaruvning markazida xodim salohiyati turibdi.

2. Korporativ bilimlar muhitini yaratish, digital-learning tizimlari va ko‘nikmalarni boshqarish asosiy ustunlikka aylandi.

3. Raqamli kompetensiyalar – barcha sohalarda asosiy mehnat bozori talabi sifatida shakllanmoqda.

4. Sun’iy intellekt va analitika HR-funksiyalarining sifatini oshirmoqda.

5. Gibrid va masofaviy ish mehnatni tashkil etishning yangi modeli sifatida kengaymoqda.

Umuman olganda, korxonalarda inson kapitalini rivojlantirishning raqamli modeli – innovatsion, tezkor, shaffof va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirmoqda. O‘rganilgan jarayonlar asosida inson kapitalini rivojlantirishni yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

1. Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha korporativ strategiya ishlab chiqish.

Korxonalar xodimlarining IT-savodxonligi, data-analitika, AI bilan ishlash, kiberxavfsizlik va avtomatlashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirishi lozim.

2. HR-Tech platformalarini to‘liq joriy etish.

ATS, LMS, Talent-Management va KPI monitoring tizimlari xodimlar salohiyatini to‘liq tahlil qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

3. Masofaviy va gibrid ish tizimlarini institutsional darajada mustahkamlash.

Bu xodimlar samaradorligini oshiradi, korxonani global mehnat bozoriga integratsiyalash imkonini beradi.

4. Inson kapitali sifatini baholashda data-analitika va AI vositalaridan foydalanish.

Yollashdan tortib, motivatsiya va malaka oshirishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda analitik yondashuv samaradorlikni oshiradi.

5. Korporativ bilimlar bazasi va ichki trening ekotizimini yaratish.

Xodimlar o‘z tajribasi va bilimlarini almashishi, innovatsion takliflar berishi uchun raqamli platformalar yo‘lga qo‘yilishi zarur.

6. Xodimlarning moslashuvchan kompetensiyalarini (soft skills) tizimli rivojlantirish.

Raqamli iqtisodiyotda kreativlik, kommunikativlik, muammo yechish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari yuqori qiymatga ega.

7. Korxonalarda HR-raqamlashtirish jarayonini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish.

ISO HR standartlari, SHRM tavsiyalari va xalqaro kompetensiya modellari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

8. Xodimlarni rag‘batlantirish tizimini raqamli samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan integratsiya qilish.

KPI, OKR va performance-metrikalar asosida rag‘bat o‘zgartirilsa, xodim motivatsiyasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McKinsey Global Institute. The Future of Work in Europe. – 2022. https://www.mckinsey.com/mgi/publications/the-future-of-work-in-europe

2. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2023. – 2023. https://www.weforum.org/reports/future-of-jobs-report-2023

3. Deloitte. Global Human Capital Trends - 2022. – 2022. https://www2.deloitte.com/global/en/pages/human-capital/articles/human-capital-trends.html

4. OECD. Skills for the Digital Economy. – Paris: OECD Publishing, 2021. https://www.oecd.org/employment/skills-for-the-digital-economy.htm

5.

Mamatqulov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari. – 2023. https://scholar.google.com/scholar?q=Raqamli+iqtisodiyot+inson+kapitali

6. Bozorov N. Korxonalarda raqamlashtirish va malaka oshirish tizimlari. – 2024.

https://scholar.google.com/scholar?q=Korxonalarda+raqamlashtirish+va+malaka+oshirish

7. Xolmatova M. HR-Tech texnologiyalari va kompetensiya modeli. – 2023. : https://scholar.google.com/scholar?q=Hr

8. Tech+texnologiyalari+va+kompetensiya+modeli

9. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot statistik ma’lumotlari. – 2023–2024. https://stat.uz

10. IBM Institute for Business Value. Digital Workforce Transformation Insights. – 2023. https://www.ibm.com/thought-leadership/institute-business-value

II.

Sohalarda statistik, demografik va mehnat munosabatlari

tahlili

STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
AKTSI kafedrasi mudiri,
Iminova Nargizaxon Akramovna
e-mail: n.iminova@tuit.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada strategik rejalashtirish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar analitikasi va axborot tizimlari strategik qaror qabul qilishning aniqligi va boshqaruv samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Maqolada xalqaro tajribalar, korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlari va mahalliy korxonalar amaliyotiga tayanilgan holda strategiya boshqaruv - samaradorlik o‘rtasidagi integratsion model ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion boshqaruv vositalari bilan boyitilgan strategik rejalashtirish korporatsiyalarning barqaror o‘sishini, raqobatbardoshligini va manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqalarini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Strategik rejalashtirish, korporativ boshqaruv, innovatsion boshqaruv texnologiyalari, sun’iy intellekt, Big Data, risklarni boshqarish, shaffoflik, raqamli transformatsiya, korporativ samaradorlik, boshqaruv modeli.

Abstract. This article provides a scientific analysis of contemporary development trends in strategic planning processes and corporate governance mechanisms, their interrelationships, and opportunities for improvement based on innovative approaches. Digital technologies, artificial intelligence, big data analytics, and information systems are examined as key factors enhancing the accuracy of strategic decision-making and overall management efficiency. Drawing on international experience, advanced corporate governance standards, and the practical operations of local enterprises, the study develops an integrated model linking strategy, governance, and performance. The findings demonstrate that strategic planning enriched with innovative management tools ensures sustainable corporate growth, strengthens competitiveness, and enhances effective engagement with stakeholders.

Keywords: strategic planning, corporate governance, innovative management technologies, artificial intelligence, big data, risk management, transparency, digital transformation, corporate performance, governance model

Аннотация. В статье представлен научный анализ современных тенденций развития процессов стратегического планирования и механизмов корпоративного управления, их взаимосвязи, а также возможностей совершенствования на основе инновационных подходов. Цифровые технологии, искусственный интеллект, аналитика больших данных и информационные системы рассматриваются как ключевые факторы повышения точности стратегических управленческих решений и эффективности управления. На основе международного опыта, передовых стандартов корпоративного управления и практики отечественных предприятий разработана интеграционная модель взаимосвязи стратегии, управления и эффективности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что стратегическое планирование, обогащённое инновационными управленческими инструментами, обеспечивает устойчивый рост корпораций, повышение их конкурентоспособности и эффективное взаимодействие с заинтересованными сторонами.

Ключевые слова: стратегическое планирование, корпоративное управление, инновационные управленческие технологии, искусственный интеллект, Big Data, управление рисками, прозрачность, цифровая трансформация, корпоративная эффективность, модель управления

KIRISH.

“Strategik rejalashtirish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning innovatsion yo‘nalishlari” mavzusi bugungi globallashuv sharoitida korxonalar barqarorligini ta’minlash, raqobat ustunligini shakllantirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon iqtisodiyoti dinamik o‘zgarayotgan, bozor talablarining o‘zgaruvchanligi kuchaygan, raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarining barcha bo‘g‘inlariga chuqur kirib kelayotgan hozirgi davrda strategik rejalashtirish faqat uzoq muddatli rejalar ishlab chiqish bilan cheklanmay, balki korporativ boshqaruvning takomillashgan mexanizmlari bilan uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritishni talab etadi. Korxona strategiyasi, boshqaruv madaniyati, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlar, ichki nazorat va monitoring tizimlari bir butun mexanizm sifatida shakllanmaguncha, zamonaviy korporatsiyalarning raqobatbardoshligi to‘liq ta’minlanmaydi.

Strategik rejalashtirish nafaqat kompaniyaning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi, balki resurslardan samarali foydalanish, tavakkalchiliklarni boshqarish, bozor imkoniyatlarini aniqlash va tashkilotning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydigan boshqaruv mexanizmlarini yaratishni ham o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda raqamlashtirishning tez sur’atlar bilan rivojlanishi ushbu jarayonlarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishiga zamin yaratmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar analitikasi (big data), biznes-analitika platformalari, korporativ resurslarni boshqarish tizimlari (ERP) strategik qaror qabul qilish jarayonini ancha takomillashtirib, boshqaruvning shaffofligi va javobgarligini yangi darajaga ko‘tarmoqda.

Korporativ boshqaruv tizimi esa aksiyadorlar manfaatlarini himoya qiluvchi, menejmentning mas’uliyat darajasini oshiruvchi hamda kompaniya faoliyatining ochiqligini ta’minlovchi tamoyillar asosida shakllanadi. Jahon banki, OECD va boshqa xalqaro institutlar tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv standartlari ko‘plab davlatlarda kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy metodologik platformaga aylangan. Umuman olganda, korporativ boshqaruv tizimini

innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda rivojlantirish strategik rejalashtirish jarayonining integral qismi sifatida qaralishi zarur.

Mazkur ilmiy maqolada strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruv jarayonlarining nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi, zamonaviy korporatsiyalarda qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlar hamda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari chuqur ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, maqola doirasida ilg‘or xorijiy tajribalar hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan samarali boshqaruv mexanizmlari o‘rganilib, korxonalar faoliyatida strategiya va boshqaruv uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruvning nazariy asoslari bo‘yicha klassik va zamonaviy ilmiy adabiyotlar ushbu tushunchalarning korxona rivojlanishidagi markaziy rolini chuqur asoslab beradi. Ansoff (2007) va Chandler (1990) strategiyani tashkilot tuzilmasi va resurslar taqsimoti bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida talqin qilib, strategik rejalashtirishni uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy boshqaruv vositasi deb hisoblaydi. Mintzberg (1994) esa strategik rejalashtirishning faqat rasmiy rejalar majmui emas, balki dinamik muhitga moslashuvchi boshqaruv tafakkuri ekanini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvlar strategiya va boshqaruvning ajralmasligini ilmiy jihatdan asoslab, korporativ boshqaruv mexanizmlarining strategik qarorlarni amalga oshirishdagi muhim rolini ochib beradi. Grant (2019) tomonidan ilgari surilgan resurslarga asoslangan strategiya nazariyasi esa strategik rejalashtirish samaradorligini ichki imkoniyatlar, boshqaruv sifati va institutsional muhit bilan chambarchas bog‘laydi.

Korporativ boshqaruv masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar, xususan, Charkham (2000), Hamidulin (2007), Zaynutdinov va Rahimova (2007) hamda IFC (2018) tadqiqotlarida korporativ boshqaruv aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, menejment javobgarligini kuchaytirish va shaffoflikni ta’minlash vositasi sifatida talqin qilinadi. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv xususiyatlarini o‘rgangan Hankeldiyeva (2017) korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi bevosita ichki nazorat, audit va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar sifatiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. IFC va OECD standartlari korporativ boshqaruvni strategik rejalashtirish bilan integratsiyalashgan holda qo‘llashni tavsiya etib, strategiya, risklarni boshqarish va nazorat tizimlari yagona boshqaruv arxitekturasi sifatida shakllanishi zarurligini asoslaydi. Ushbu manbalar

strategik rejalashtirish muvaffaqiyati korporativ boshqaruvning institut sifatida qanchalik rivojlanganiga bevosita bog‘liqligini ilmiy dalillar bilan tasdiqlaydi.

So‘nggi yillardagi ilmiy adabiyotlar strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruvning innovatsion transformatsiyasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Davenport va Harris (2017) ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv konsepsiyasini ilgari surib, Big Data va analitik platformalar strategik qaror qabul qilishning aniqligi va tezligini tubdan oshirishini isbotlaydi. Tapscott (2016) esa blokcheyn texnologiyalarining korporativ boshqaruvdagi shaffoflik, ishonch va nazorat mexanizmlarini yangilashdagi rolini ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2020) ham milliy darajada strategik rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab, innovatsion boshqaruv vositalarini joriy etish orqali korxonalar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu manbalar majmuasi strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruvning kelajak modeli raqamli texnologiyalar, analitik yondashuvlar va shaffof boshqaruv institutlari integratsiyasiga asoslanishini konseptual jihatdan asoslab beradi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqot strategik rejalashtirish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ilmiy izlanishlarda keng qo‘llaniladigan bir nechta metodlarga tayandi. Avvalo, mavzuga oid nazariy yondashuvlarni aniqlash uchun xalqaro ilmiy maqolalar, OECD, Jahon banki, IFC kabi tashkilotlarning korporativ boshqaruv bo‘yicha standart va hisobotlari, shuningdek, yetakchi korporatsiyalarning ochiq ma’lumotlar bazasi asosida kontent tahlili amalga oshirildi. Bu yondashuv strategik boshqaruvning zamonaviy tamoyillari, rejalashtirish jarayonining evolyutsiyasi va korporativ boshqaruv modeli transformatsiyasi haqida umumiy ilmiy asos yaratdi.

Keyingi bosqichda korporativ boshqaruvning samaradorlikka ta’sirini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi. Xususan, rivojlangan korporativ boshqaruvga ega bo‘lgan xalqaro kompaniyalar bilan boshqaruv tizimi endigina modernizatsiya qilinayotgan korxonalar o‘rtasida strategik rejalashtirishning bajarilish sifati, nazorat tizimlari, risklarni boshqarish yondashuvlari va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik modeli solishtirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotning amaliy qismini mustahkamlash uchun tizimli yondashuv qo‘llanilib, strategik rejalashtirish - korporativ boshqaruv - natijadorlik

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model orqali strategik maqsadlar aniqligi, qaror qabul qilish mexanizmlarining shaffofligi, boshqaruvdagi javobgarlik va ichki nazoratning ahamiyati integrallashgan holda baholandi. Umuman olganda, tanlangan metodlar maqola doirasida strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruvning nazariy hamda amaliy jihatlarini kompleks o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari keyingi bo‘limda batafsil tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot natijalari strategik rejalashtirish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi, korporatsiyalar samaradorligiga ta’siri hamda innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyatini yoritib berdi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, strategik rejalashtirish faqat uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi jarayon emas, balki korporativ boshqaruvning barcha elementlarini - qaror qabul qilish, monitoring, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik, risklarni boshqarish va shaffoflikni - yagona tizimga integratsiya qiluvchi mexanizmga aylanib bormoqda.

Strategik rejalashtirishning samaradorlikka ta’siri bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayonning sifati korporatsiya faoliyatining barqarorligi va natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Strategik rejalashtirish puxta yo‘lga qo‘yilgan korxonalarda rivojlanish yo‘nalishlari aniq belgilanadi, resurslar maqsadli taqsimlanadi hamda tashqi va ichki muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘ladi. Bunday tashkilotlarda strategiya faqat deklarativ hujjat sifatida emas, balki kundalik boshqaruv qarorlarini yo‘naltiruvchi amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, strategik maqsadlari aniq shakllantirilgan va ularni o‘lchash uchun to‘g‘ri tanlangan KPI indikatorlariga ega korxonalarda qaror qabul qilish jarayoni tez va asosli bo‘ladi. Maqsadlar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikning aniqligi boshqaruv subyektivligini kamaytirib, xatolik ehtimolini pasaytiradi. Natijada, menejment qarorlari intuitiv yondashuvdan ko‘ra, faktlar va tahlillarga asoslangan holda qabul qilinadi, bu esa umumiy korporativ samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda strategik rejalashtirish jarayonlarining samaradorligi raqamli va innovatsion boshqaruv vositalarining qo‘llanilishi bilan yanada kuchaymoqda. Big Data analitikasi yordamida bozor tendensiyalarini chuqur va aniq prognozlash imkoniyati yuzaga kelib, korxonalar kelajakdagi xatarlar va imkoniyatlarni oldindan baholashga erishmoqda. Business Intelligence platformalari

esa murakkab ma’lumotlarni vizual va tushunarli shaklda taqdim etib, strategik qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtirmoqda.

Shuningdek, ERP tizimlarining strategik rejalashtirishga integratsiyalashuvi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu tizimlar orqali moliyaviy, moddiy va inson resurslari yagona axborot makonida boshqarilib, strategik rejalarning real bajarilishi doimiy monitoring qilinadi. Sun’iy intellekt asosidagi risk-modellar esa xavflarni oldindan aniqlash va baholash imkonini berib, korxonaning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim vositaga aylanmoqda.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasi strategik rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan korporativ boshqaruv tizimiga ega kompaniyalarda strategik rejalarning bajarilishi izchil va nazorat ostida amalga oshiriladi. Bunday mexanizmlar boshqaruvda shaffoflikni ta’minlab, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning kompaniya faoliyati haqidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, takomillashgan korporativ boshqaruv javobgarlik darajasini sezilarli oshiradi. Boshqaruv organlari faoliyati aniq mezonlar asosida baholanadi, ichki va tashqi audit tizimlari orqali qarorlar monitoring qilinadi. Natijada, strategik qaror qabul qilishda mas’uliyatsizlik va noto‘g‘ri qarorlar xavfi kamayadi, risklarni boshqarish jarayoni esa tizimli va ilmiy asosda olib boriladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori korporativ boshqaruv standartlariga ega bo‘lgan xalqaro va mahalliy kompaniyalarda strategik rejalashtirishning bajarilish sur’ati va natijadorligi ancha yuqori bo‘ladi. Boshqaruvi sust rivojlangan korxonalarda esa strategik maqsadlarning mavhumligi, monitoring tizimlarining zaifligi va qarorlarning subyektivligi samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruvning uyg‘unlashuvi zamonaviy korxonalar uchun raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

1-jadval

Strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	Rivojlangan korporativ boshqaruvga ega kompaniyalar	Boshqaruvi sust rivojlangan korxonalar
Strategik maqsadlarning aniqligi	Yuqori – KPI va roadmap bilan uyg‘un	Past – umumiy va mavhum
Risklarni boshqarish tizimi	AI va big data asosida raqamli model	Qo‘lda, tajribaga tayanadi
Qaror qabul qilish jarayoni	Ma’lumotlarga asoslangan, tezkor	Subyektiv, sekin
Shaffoflik darajasi	Yillik hisobotlar, auditorlik nazorati	Minimal, cheklangan
Innovatsion boshqaruv vositalari	ERP, BI, AI, IoT, blockchain	An’anaviy hisob-kitob usullari
Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Mo‘tadil va mexanizatsiyalashgan	Episodik, tizimsiz

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning transformatsiyasi va turizm sohasining jadal rivojlanishi sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligi va turistik jozibadorligini oshirishda davlatning roli kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari, jumladan subsidiya va grantlar ajratish, soliq imtiyozlari berish, milliy va xalqaro ko‘rgazma hamda festivallarni tashkil etish, o‘quv va akseleratsion dasturlarni joriy etish, shuningdek hunarmandchilik klasterlari va turistik yo‘nalishlarni shakllantirish masalalari chuqur yoritiladi.

Maqolada 2017–2023 yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish hamda nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylashdagi ahamiyati baholanadi. Tadqiqot metodologiyasi kvantitativ tahlil, hududlararo solishtirma tahlil va turistik faolligi yuqori bo‘lgan hunarmandchilik markazlari bo‘yicha keys-stadi usullariga asoslanadi. Olingan

natijalar davlat siyosatining samaradorligini baholash hamda hunarmandchilik va turizm integratsiyasini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: davlat siyosati, davlat qo‘llab-quvvatlashi, hunarmandchilik, xalq amaliy san’ati, turizm, hunarmandchilik turizmi, raqobatbardoshlik, institutsional infratuzilma, subsidiya, grant, soliq imtiyozlari, ko‘rgazmalar, festivallar, hunarmandchilik klasterlari, eksport salohiyati, bandlik, kichik biznes, tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, madaniy meros, nomoddiy meros, turistik jozibadorlik, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, iqtisodiy diversifikatsiya, kreativ iqtisodiyot

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the role of the state in enhancing the competitiveness and tourism attractiveness of handicraft products in the Republic of Uzbekistan amid economic transformation and the rapid development of the tourism sector. Particular attention is paid to institutional and economic instruments of public support for artisans, including subsidies, grant schemes, tax incentives, the organization of national and international exhibitions and festivals, educational and acceleration programs, as well as the formation of handicraft clusters and tourism routes based on traditional crafts.

The study systematizes regulatory and legal initiatives and government programs implemented during 2017–2023 aimed at stimulating the handicraft sector, expanding employment, increasing export potential, and preserving intangible cultural heritage. The methodological framework is based on quantitative analysis, comparative regional analysis, and case studies of regions with high concentrations of handicraft clusters and tourism activity. The findings make it possible to assess the effectiveness of state policy and to identify directions for its further improvement in the context of sustainable economic and tourism development.

Keywords: public policy, state support, handicrafts, traditional crafts, tourism, handicraft tourism, competitiveness, institutional framework, subsidies, grants, tax incentives, exhibitions, festivals, handicraft clusters, export potential, employment, small business, entrepreneurship, regional development, cultural heritage, intangible heritage, tourism attractiveness, sustainable development, Uzbekistan, economic diversification, creative economy

ВВЕДЕНИЕ. Ремесленничество в Узбекистане выполняет одновременно культурную и экономическую функции: сохраняет традиционные техники и

формирует добавленную стоимость в регионах через занятость, предпринимательство и туризм. На фоне роста туристических потоков ремесленные изделия становятся частью туристического опыта, влияя на имидж территорий и «национальный бренд» страны. Однако конкурентоспособность ремесленного сектора зависит не только от художественного качества изделий, но и от доступа к рынкам, брендинга, логистики, цифровых каналов продаж и институциональной поддержки.

Государство в этих условиях выступает ключевым актором, формируя нормативно-правовую основу, финансовые стимулы, инфраструктуру продвижения и механизмы вовлечения ремесленных продуктов в туристические маршруты. Системный анализ государственной политики позволяет выявить, какие инструменты поддержки дают наиболее измеримый эффект, а какие требуют уточнения с учётом рыночной конкуренции и сезонности туристического спроса.

Цель исследования заключается в изучении механизма государственной поддержки ремесленного сектора Узбекистана и оценке её влияния на конкурентоспособность изделий и развитие туризма. Для достижения цели рассматриваются нормативно-правовые инициативы 2017–2023 годов, инструменты поддержки ремесленников (субсидии, выставки, фестивали, обучение), влияние политики на туристическое потребление и рынок ремесленных изделий, а также проводится SWOT-анализ отрасли с выработкой прикладных рекомендаций.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУР. Научная литература, посвящённая взаимосвязи ремесленничества и туризма, широко раскрывает значение данного сектора в развитии национальной экономики и сохранении культурного наследия. В международных исследованиях (UNESCO, World Bank, OECD) ремесленные изделия рассматриваются как важный элемент туристической цепочки создания ценности, способствующий формированию территориального бренда, обогащению туристского опыта и росту занятости населения в регионах. В рамках концепции культурных и креативных индустрий подчёркивается, что ремесленничество трансформируется из традиционной формы производства в рыночно ориентированную деятельность, интегрированную с инновациями и сервисными компонентами.

Роль государства в поддержке ремесленного сектора подробно анализируется в работах, посвящённых институциональным и экономическим механизмам развития. В отчётах OECD (2023) и UNDP (2025) отмечается, что государственная политика, реализуемая через субсидии, гранты, налоговые льготы, образовательные программы и инфраструктурную поддержку, способствует повышению конкурентоспособности ремесленных изделий. Исследования World Bank акцентируют внимание на значении цифровой инклюзии и онлайн-платформ как ключевых инструментов выхода ремесленных товаров на внутренние и внешние рынки. Эти источники подтверждают, что эффективность государственного участия зависит от комплексного подхода, при котором финансовые меры поддержки дополняются маркетинговыми и институциональными реформами.

Отечественные исследования и аналитические материалы, посвящённые развитию ремесленничества в Узбекистане (Yuz.uz, WCCE, проект British Council «Crafting Futures Uzbekistan»), отражают практические результаты государственных инициатив последних лет. В них подчёркивается, что на основе нормативно-правовых актов 2017–2023 годов была сформирована институциональная система поддержки ремесленников, расширена деятельность ассоциации «Hunarmand», а также усилена роль выставок, ярмарок и фестивалей в продвижении продукции. Одновременно отмечается наличие региональных различий в темпах развития сектора: в Бухаре, Самарканде, Хиве и Ферганской долине ремесленничество развивается более динамично благодаря тесной интеграции с туристическими маршрутами.

В современных научных публикациях особое внимание уделяется вопросам цифровизации и вовлечения молодёжи в ремесленный сектор. Материалы UNESCO (2024) подчёркивают необходимость сочетания традиционных ремёсел с современным дизайном, предпринимательскими навыками и цифровым маркетингом для обеспечения устойчивости отрасли. В целом обзор литературы позволяет сделать вывод о том, что государственная политика в сфере ремесленничества должна рассматриваться не только как инструмент сохранения культурного наследия, но и как важная составляющая экономической стратегии, направленной на развитие туризма, экспорта и национального брендинга Узбекистана.

МЕТОДОЛОГИЯ. Исследование выполнено на основе комбинированного подхода, объединяющего документальный анализ, количественную интерпретацию показателей и сравнительнотерриториальный разрез. На первом этапе проведён контент-анализ нормативно-правовых актов и государственных инициатив 2017–2023 годов, регулирующих поддержку ремесленничества, экспортного продвижения и туристических мероприятий. Это позволило выделить доминирующие направления политики: финансовое стимулирование (субсидии, льготные инструменты), событийное продвижение (ярмарки, фестивали), образовательная поддержка и цифровизация продаж.

На втором этапе использованы количественные данные по мерам поддержки (число получателей, объёмы финансирования, заявленные результаты), представленные в агрегированном виде, с интерпретацией их влияния на типовые экономические эффекты: обновление материальной базы мастерских, расширение экспортных возможностей, рост туристического интереса и увеличение онлайн-продаж. На третьем этапе проведён SWOTанализ отрасли для выявления внутренних ограничений и внешних возможностей, а также для обоснования логики дальнейшей политики.

Дополнительно применён сравнительно-региональный подход, позволяющий определить территориальные «центры эффекта» государственной поддержки (Бухара, Самарканд, Хива, Ферганская долина) и объяснить их результативность через концентрацию туристических потоков и ремесленных кластеров.

Результаты исследования показывают, что государственная поддержка ремесленного сектора в Узбекистане носит системный характер и реализуется через сочетание финансовых и организационно-институциональных механизмов. Наиболее выраженный эффект наблюдается в тех инструментах, которые одновременно улучшают производственные возможности ремесленников и расширяют каналы сбыта через туризм и международное продвижение.

Таблица 1

Основные меры поддержки ремесленного сектора (2017–2024 гг.)

Год	Мера поддержки	Количество получателей	Объём финансирования (млн сум)	Результаты
2017	Субсидии на оборудование	150	120	Улучшено оснащение мастерских
2018	Участие в международных выставках	80	90	Расширены экспортные возможности
2019	Обучение и повышение квалификации	300	50	Повышение качества продукции
2020	Организация фестивалей	200	70	Рост туристического интереса
2021	Государственные гранты	100	150	Формирование новых ремесленных брендов
2022	Цифровизация продаж	120	60	Онлайн-продажи выросли на 25%

Финансовые инструменты поддержки (субсидии и гранты) демонстрируют прямое влияние на модернизацию мастерских, что повышает качество, повторяемость и ассортимент продукции. Организация выставок и международное участие создают «внешний спрос», усиливая экспортную компоненту и формируя узнаваемость ремесленных брендов. Фестивали и событийные мероприятия выступают связующим механизмом между ремесленничеством и туризмом, переводя изделия из «подарочносувенирного» сегмента в полноценный туристический продукт, включаемый в маршруты и культурные программы.

Таблица 2

SWOT-анализ ремесленного сектора Узбекистана

Категория	Элементы

Сильные стороны	богатое культурное наследие, уникальные изделия, мастерство, государственная поддержка, рост туристического потока
Слабые стороны	ограниченные каналы сбыта, низкий маркетинг и брендинг, недостаток современных технологий, высокая зависимость от сезонного туризма
Возможности	онлайн-продажи, международные выставки и фестивали, цифровизация, сотрудничество с туризмом, расширение экспортного потенциала
Угрозы	экономическая нестабильность, конкуренция импортных товаров, снижение интереса молодёжи к ремёслам, колебания туристического потока

В рамках SWOT-анализа установлено, что сектор обладает высокой культурной уникальностью и поддерживается государством, однако ограничен слабым брендингом, недостаточной технологичностью и зависимостью от сезонности. Цифровизация продаж формирует наиболее перспективное окно возможностей, снижая зависимость от офлайн-потоков и расширяя рынок до национального и международного уровня.

Региональный анализ показывает, что наиболее результативная реализация мер поддержки проявляется в территориях с высокой концентрацией ремесленных школ и устойчивыми туристическими маршрутами. Эти регионы фактически выступают «витринами» ремесленного туризма, а внедрение цифровых инструментов усиливает эффект, расширяя охват потребителей и снижая барьеры выхода на внешние рынки.

ОБСУЖДЕНИЕ. Обсуждение результатов подтверждает, что государственная политика в ремесленничестве наиболее эффективна тогда, когда она выстроена как цепочка «производство → качество → продвижение → спрос», а не как отдельные несвязанные меры. Субсидирование оборудования повышает производственную устойчивость мастерских, но без продвижения и каналов продаж эффект ограничивается локальным рынком. Выставки и фестивали, напротив, формируют спрос и интерес, но без поддержанного качества и масштабируемости производства они не обеспечивают долгосрочного

конкурентного преимущества. Следовательно, именно комплексность поддержки объясняет наблюдаемую практическую результативность.

Отдельного внимания заслуживает связка ремесленничества и туризма. В условиях, когда туристический продукт всё чаще строится вокруг впечатлений, ремесло становится не только товаром, но и сервисом: мастерклассы, ремесленные маршруты, культурные пространства, интерактивные ярмарки. Это расширяет экономический эффект ремесла за пределы прямых продаж, усиливая занятость, сервисную инфраструктуру и региональные доходы. Однако зависимость от сезонности требует компенсирующих механизмов, среди которых ключевую роль играет цифровизация и выход на круглогодичные онлайн-каналы.

Выявленные слабые стороны (маркетинг, брендинг, технологии) показывают, что следующая фаза государственной политики должна смещаться от первичной поддержки к «поддержке конкурентоспособности»: продвижение брендов территорий и ремесленных школ, стандарты качества, сертификация подлинности, развитие дизайна и упаковки, а также интеграция с туристическими операторами и цифровыми платформами. Угрозы импорта и снижения интереса молодёжи требуют усиления образовательных треков и создания привлекательной экономической модели для молодого мастера, где ремесло воспринимается как современная профессия с перспективой роста, а не как только традиция.

В целом результаты позволяют утверждать, что государственная поддержка ремесленничества в Узбекистане выступает не просто социальной мерой сохранения наследия, а полноценным инструментом экономической политики, который влияет на туризм, экспортные возможности и формирование национального бренда. При этом повышение эффективности политики связано с балансом между культурной аутентичностью и рыночными инструментами конкурентоспособности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Проведённый анализ показал, что государство играет системообразующую роль в повышении конкурентоспособности и туристической привлекательности ремесленных изделий Узбекистана. Комплекс мер поддержки, включающий субсидирование, грантовые механизмы, выставочно-фестивальную активность, обучение и цифровизацию, способствует обновлению производственной базы, повышению качества продукции,

расширению экспортных возможностей и усилению туристического спроса. Наиболее сильный эффект достигается в регионах, где ремесленные кластеры интегрированы в устойчивые туристические маршруты.

SWOT-анализ выявил, что дальнейшее развитие сектора требует укрепления брендинга и маркетинга, расширения каналов сбыта, повышения технологичности и устойчивости к сезонным колебаниям туризма. Практическая рекомендация заключается в усилении цифровых каналов продаж, развитии ремесленного туризма как «опытного продукта» (мастерклассы, маршруты, культурные пространства), а также в расширении международной кооперации через выставки, сертификацию и платформенное продвижение. Таким образом, ремесленничество при эффективной государственной политике становится одновременно драйвером региональной экономики, инструментом роста туризма и механизмом сохранения культурного наследия.

Список использованной литературы:

1. Всемирный банк. Uzbekistan Digital Inclusion Project : Project Documentation. – Washington, DC : World Bank Group, 2023. – URL: https://www.worldbank.org (дата обращения: 12.12.2025).

2.

United Nations Development Programme (UNDP). Digital Economy of Uzbekistan : Analytical Report. – New York : UNDP, 2025. – 148 p.

3.

OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 96 p. – DOI: 10.1787/uzb-dig-2023.

4.

UNESCO. National Training on Traditional Craftsmanship, Design and Entrepreneurship : Project Report (Margilan). – Paris : UNESCO, 2024. – 82 p.

5.

British Council. Crafting Futures Uzbekistan : Final Report. – London : British Council, 2023. – 74 p.

6.

World Crafts Council Europe (WCCE). Creative Industries and Handicrafts Development in Uzbekistan : Policy Brief. – Brussels : WCCE, 2022. – 41 p.

7. Yuz.uz. Ремесленникам предоставляются льготные кредиты и субсидии [Электронный ресурс]. – Ташкент, 2021. – URL: https://yuz.uz (дата обращения: 12.12.2025).

8.

Ассоциация «Hunarmand». Отчёт о мерах государственной поддержки ремесленников в Республике Узбекистан. – Ташкент, 2022. – 58 с.

9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Culture, Tourism and Local Development : Maximising the Impact of Cultural Heritage. – Paris : OECD Publishing, 2019. – 203 p.

10. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Creative Economy Outlook. – Geneva : United Nations, 2022. – 156 p.

11. Richards G. Cultural Tourism : Global and Local Perspectives. – New York : Routledge, 2018. – 312 p.

12. Florida R. The Rise of the Creative Class. – New York : Basic Books, 2019. – 434 p.

VI. Bioiqtisodiyot va ekologik barqarorlik

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK MODELI

TATU, v.b. dotsent Zuxurova Nargiza

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda yashil iqtisodiyot tamoyillarining metodologik asoslari chuqur ilmiynazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni yagona tizimda integratsiyalovchi konseptual baholash modelini ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining evolyutsiyasi, sanoat ishlab chiqarishida ekologik innovatsiyalar va energiya samarador texnologiyalarning iqtisodiy ta’siri aniqlangan. Tadqiqot metodologiyasi doirasida sanoat korxonalarining yashil rivojlanish darajasini aniqlash uchun “Yashil samaradorlik integrallashgan indeksi (GPI)” ishlab chiqildi va Toshkent viloyatidagi sanoat subyektlari misolida empirik sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar yashil texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy foyda bilan ekologik samaradorlik o‘rtasida barqaror ijobiy bog‘liqlikni

shakllantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida O‘zbekiston sanoat sektorida yashil transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: yashil iqtisodiyot, sanoat korxonalari, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik, energiya samaradorligi, yashil transformatsiya, integrallashgan indeks, GPI modeli, innovatsion texnologiyalar.

KIRISH. Global iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida sanoat ishlab chiqarishi bilan atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanat masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy iqtisodiy modelda ishlab chiqarish hajmini oshirish ko‘pincha tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi va ekologik degradatsiya bilan kechgan. Natijada, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmaga ehtiyoj yuzaga keldi. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o‘sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi muhim nazariy-amaliy platforma sifatida maydonga chiqdi.

Sanoat korxonalari yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Chunki aynan ushbu sektor energiya iste’moli, chiqindilar hajmi va uglerod chiqindilarining asosiy ulushini shakllantiradi. Shu bois sanoat korxonalarining faoliyatini yashil iqtisodiyot mezonlari asosida qayta baholash va metodologik jihatdan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining yashil rivojlanishini baholashning konseptual-metodologik modeli ishlab chiqiladi va uning amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI. Yashil iqtisodiyot tushunchasi ilk bor XX asr oxirlarida ekologik cheklovlar sharoitida iqtisodiy o‘sish muammolarini hal etishga qaratilgan nazariy yondashuv sifatida shakllandi. Pearce, Markandya va Barbier tomonidan ishlab chiqilgan “Green Economy Blueprint” asarida ushbu konsepsiya tabiiy kapitalni asrab-avaylash sharti bilan iqtisodiy samaradorlikka erishish modeli sifatida izohlangan. Mualliflar iqtisodiy o‘sishni resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘lash orqali barqaror rivojlanishning nazariy poydevorini yaratdilar.

Keyingi tadqiqotlarda OECD tomonidan yashil iqtisodiyot “past uglerodli, resurs tejamkor va inklyuziv iqtisodiy tizim” sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotni faqat ekologik siyosat emas, balki innovatsiyalar, ijtimoiy tenglik va institutsional islohotlarni o‘z ichiga olgan kompleks model sifatida qarash imkonini berdi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida energiya samaradorligi va chiqindilarni

qayta ishlash texnologiyalarining joriy etilishi iqtisodiy va ekologik natijalar o‘rtasida sinergiya hosil qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Porter va van der Linde tomonidan ilgari surilgan “ekologik raqobatbardoshlik” gipotezasi sanoat korxonalari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, ekologik standartlarni kuchaytirish xarajatlarni oshirmaydi, aksincha, innovatsiyalarni rag‘batlantirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Ushbu gipoteza keyingi empirik tadqiqotlarda tasdiqlanib, yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda uzoq muddatli iqtisodiy foyda yuqori ekanini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni “Yashil iqtisodiyotga o‘tish milliy strategiyasi (2023–2030)” bilan mustahkamlandi. Ushbu hujjatda sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham sanoat korxonalarining eko-samaradorligini baholash va integrallashgan indekslardan foydalanish masalalari alohida e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv va konseptual modellashtirish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuv sanoat korxonalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy faoliyatini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Metodologiya doirasida korxonalarning yashil rivojlanish darajasini aniqlash uchun ko‘p bosqichli baholash mexanizmi ishlab chiqildi.

Birinchi bosqichda ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi shakllantirildi. Unga energiya iste’moli darajasi, chiqindilarni kamaytirish ulushi, uglerod izi va resurslardan foydalanish samaradorligi kiritildi. Ushbu indikatorlar korxonaning atrof-muhitga ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratildi. Bu bosqichda ishlab chiqarish hajmi, sof foyda, tannarx dinamikasi va resurs samaradorligi asosiy mezonlar sifatida tanlandi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar ekologik chora-tadbirlar natijasida yuzaga kelgan moliyaviy o‘zgarishlarni baholashga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqichda ijtimoiy samaradorlik indikatorlari belgilandi. Bular ish o‘rinlari yaratish, mehnat sharoitlari xavfsizligi, xodimlar malakasini oshirish va

mahalliy jamoalar bilan ijtimoiy hamkorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent yashil iqtisodiyotning inklyuzivlik tamoyilini aks ettiradi.

To‘rtinchi bosqichda barcha ko‘rsatkichlar integratsiyalashgan holda “Yashil samaradorlik indeksi (GPI)” shakllantirildi:

$$GPI = (E + S) / 2 - C$$

bu yerda: E – iqtisodiy samaradorlik darajasi, S – ekologik samaradorlik darajasi, C – ifloslanish yoki yo‘qotish koeffitsienti.

Mazkur indeks sanoat korxonalarining yashil rivojlanish darajasini solishtirma tahlil qilish imkonini beradi.

Shu tarzda ishlab chiqilgan metodologiya sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini baholashda universal va moslashuvchan vosita sifatida xizmat qiladi. U turli tarmoqdagi korxonalar uchun qo‘llanilishi mumkin, chunki indikatorlar tizimi ishlab chiqarish xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartiriladi. Bundan tashqari, GPI indeksining qo‘llanilishi davlat siyosati va investitsiya strategiyalarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu metodologik yondashuv yordamida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanat ilmiy asosda baholanadi va boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Empirik tahlil Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan 12 ta sanoat korxonasi ma’lumotlari asosida amalga oshirildi. Hisobkitoblar natijalari shuni ko‘rsatdiki, energiya samarador texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda GPI ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Xususan, energiya tejamkorlik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda GPI 0,75–0,80 oralig‘ida shakllandi.

Tahlil natijalari iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o‘rtasida barqaror ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejamkor texnologiyalar ishlab chiqarish tannarxini pasaytirib, umumiy rentabellikni oshirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval

Toshkent viloyati sanoat korxonalarining yashil samaradorlik ko‘rsatkichlari (2024)


Korxona nomi	Energiya tejamkorlik (%)	Chiqindi kamayishi (%)	E□	S□	C□	GPI
“O‘zmetkombinat” AJ	18	22	0.82	0.76	0.12	0.73
“Artel Electronics” MChJ	27	31	0.89	0.81	0.10	0.80
“Uzkabel” AJ	14	18	0.78	0.69	0.11	0.68
“Akfa Plast” MChJ	20	26	0.83	0.75	0.09	0.74

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Artel Electronics” MChJ korxonasida energiya tejamkorlik darajasi 27 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu tahlil qilingan korxonalar ichida eng yuqori natijadir. Shu bilan birga, chiqindilarni kamaytirish darajasi ham 31 foizni tashkil etgan, bu esa GPI ko‘rsatkichi 0.80 ga teng bo‘lishiga olib kelgan. Aksincha, “Uzkabel” AJ korxonasida energiya tejamkorlik past (14%) bo‘lgani uchun GPI 0.68 darajasida qolgan. Bu raqamlar korxonaning ekologik siyosati va texnologik yangilanish darajasi yashil iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

“O‘zmetkombinat” AJ va “Akfa Plast” MChJ korxonalari o‘rtacha darajadagi natijalarga ega bo‘ldi. Ularning energiya tejamkorlik ko‘rsatkichi mos ravishda 18 va 20 foizni tashkil etib, chiqindilarni kamaytirish darajasi 22–26 foiz oralig‘ida bo‘ldi. Shunga qaramay, ushbu korxonalar GPI ko‘rsatkichida barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab qoldi (0.73–0.74 oralig‘ida). Bu shuni anglatadiki, hatto o‘rta darajadagi ekologik yangilanishlar ham iqtisodiy samaradorlikni ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Boshqacha aytganda, korxona “yashil transformatsiya” jarayonini bosqichma-bosqich joriy qilsa ham, ijobiy natija beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalarni tatbiq etish korxonaning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Energiya tejovchi texnologiyalar ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, chiqindilarni kamaytirish esa ekologik tozalikka hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, past ifloslanish koeffitsienti (C□) GPI ni yuqori darajada saqlashga yordam beradi. Masalan, “Akfa

Plast” MChJda C□ qiymati 0.09 bo‘lgani uchun korxonaning GPI darajasi nisbatan yuqori (0.74) bo‘lgan. Bu raqamlar korxonalar uchun ekologik investitsiyalarni iqtisodiy foydali sarmoya sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining yashil transformatsiyasi konseptual modeli

Ushbu konseptual model sanoat ishlab chiqarishining barcha bosqichlarini ekologik muvofiqlik tamoyiliga asoslaydi. Resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni qayta ishlash jarayonlari “yashil iqtisodiy natija”ni shakllantiradi. Bu natijada korxonaning GPI ko‘rsatkichi oshadi, uglerod chiqindilari esa kamayadi. Model sanoat sektorining yashil iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish strategiyasini tizimli ravishda ifodalaydi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar Porter gipotezasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ekologik talablarning kuchayishi sanoat korxonalari uchun cheklov emas, balki innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlik manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yashil investitsiyalar korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib chiqdi.

O‘zbekiston sharoitida yashil transformatsiya jarayonlari davlat siyosati bilan uyg‘unlashgan holda olib borilsa, sanoat sektorining xalqaro ekologik standartlarga moslashuvi tezlashadi. Bu esa eksport salohiyatini oshirish va yangi texnologik zanjirlarni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyotga o‘tishini baholashda integrallashgan metodologik yondashuvning samaradorligini ko‘rsatdi. “Yashil samaradorlik indeksi (GPI)” iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni yagona tizimda baholash imkonini beruvchi universal vosita sifatida taklif etildi. Ushbu model sanoat korxonalarida strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, investitsiya siyosatini shakllantirishda va davlat darajasida monitoring mexanizmlarini yaratishda amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston sanoat sektorida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amaliy qadamlar allaqachon tashlangan. Energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha davlat dasturlari mavjud. Biroq, ushbu jarayonni tizimli monitoring, aniq indikatorlar va davlat–xususiy hamkorlik mexanizmlari orqali yanada kuchaytirish zarur. Shuningdek, korxonalar uchun ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish tizimini yaratish yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, yashil iqtisodiyot modeli - bu barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya va inson–texnologiya uyg‘unligiga asoslangan iqtisodiy tafakkurning yangi bosqichidir. Bu yo‘nalishda iqtisodiy o‘sish endilikda resurs sarfi bilan emas, balki innovatsion yondashuv, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy foyda bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.

Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan, 1989. 290 p.

2.

OECD. Green Growth Indicators 2020. - Paris: OECD Publishing, 2020. - 164 p.

3.

Porter M., van der Linde C. Green and Competitive: Ending the Stalemate. - Harvard Business Review,

1995. - P. 120–134.

4.

UNIDO. Green Industry Initiative Report 2021. - Vienna: UNIDO, 2021. - 122 p.

5. Sodiqov R. Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining ekologik samaradorligi. - TDIU ilmiy jurnali, 2022. - №3. - 56–63-b.

6.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish milliy strategiyasi – 2030”,

2023.Bobojonova Z. Singulyar iqtisodiyot barqaror strategik iqtisodiy tizimi sifatida // Strategik kuch. - №4. Toshkent, 2023. - B. 27–30.

7. Bobojonova Z. Raqamli texnologiyalar asosida mamlakatni rivojlantirish sharoitida singulyar iqtisodiyotning ahamiyati va iqtisodiy asosi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. - №12/5 (109). - Xiva,

2023. - B. 39–42.

8.

Xudaynazarova D. KORXONALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – S. 323-329.

9. Usmonov B. Sh., Shukurullayev U. U., Xudaynazarova D. X. Ilmiy markazlarni yaratish va rivojlantirishning motivatsion omillari //TDIU,“Iqtisodiyot va innovatsion txnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –

2021. – №. 2.

10. Xudaynazarova D. METODЫ OSENKI RISKOV VNEDRENIYA SIFROVЫX TENDENSIY V TURISTICHESKOM BIZNESE //Ekonomicheskoye razvitiye i analiz. – 2024. – T. 2. – №. 11. – S. 682-687.

11. Xudaynazapova D. X. SIFPOVAYA EKONOMIKA KAK OSNOVNOY ASPEKT ISSLEDOVANIYA SIFPOVOY TPANSFOPMATSII EKONOMI ChESKIX OTNOShENIY //Indexing. – 2024. – T. 1. – №. 1.

12. Xudaynazarova D. KORXONALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – S. 323-329.

13. Xudaynazarova D. O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA RISKLARNI SO‘NDIRISH MAQSADIDA DINAMIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T.

24. – №. 4. – S. 235-241.

14. Xudaynazarova D. X. VAJNOST MEJDUNARODNЫX BAZELSKIX STANDARTOV PRI AUDITE DEYATELNOSTI KOMMERCHESKIX BANKOV //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA). – 2023. – T. 4. – S. 28-31.

15. Xudaynazarova D. TEORETICHESKIE OSNOVЫ RISKA I MEXANIZMЫ UPRAVLENIYA PREDPRIYATIYAMI TEKSTILNOY PROMЫSHLENNOSTI //Ekonomicheskoye razvitiye i analiz. – 2023. – T.

1. – №. 2. – S. 317-322.

16. Xudaynazarova D. Digital transformation status analysis of textile industry enterprises in the country //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – T. 8. – S. 131-138.

17. Xudaynazarova D. Assessment of the dynamic capabilities of osborn textile and alchemy textile LLC //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – T. 8. – S. 139-145.

18. Xudaynazarova D. RAZVITIE TURISTICHESKIX DEREVEN SAMARKANDA I BUXARЫ. “Ekonomika i sotsium” №9(136) 2025/9/11

19. Xudaynazarova D. ZARUBEJNЫY OPЫT RAZVITIYA TURISTICHESKIX DEREVEN ekonomicheskoye razvitiye i analiz 2025/9/10 str 290-306

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY XIZMATLAR BOZORINING TAMOYILLARI VA RIVOJLANISHI

Muhammal Al-Xorizmi Axborot Texnologiyalari Universiteti

“Menejment va Marketing” kafedrasi assistenti

Usmanxodjaeva Surayyo Muxtarovna

usman.surayyo@gmail.com, +998983087793

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar bozorining shakllanish tamoyillari, raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy sohadagi roli hamda ijtimoiy xizmatlar, xususan, ijtimoiy turizm yo‘nalishi misolida rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida davlatning ijtimoiy himoya siyosati, ijtimoiy xizmatlarning ommabopligi va institut sifatida barqaror ishlashi uchun normativ-huquqiy asoslar ko‘rib chiqildi. Xalqaro tajriba sifatida Yevropa amaliyotidagi ijtimoiy turizm tashabbuslari, jumladan Calypso loyihasi, shuningdek,

ijtimoiy turizmning sog‘lom qarish, ijtimoiy integratsiya va bilvosita iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini yorituvchi ilmiy yondashuvlar taqqoslandi. Natijalar ijtimoiy xizmatlar bozorida raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bozorning barqaror o‘sishi hamda aholining himoyaga muhtoj qatlamlari uchun xizmatlar qamrovini oshirishda muhim ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiyot, ijtimoiy xizmatlar bozori, raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, ijtimoiy turizm, ijtimoiy himoya, globalizatsiya, biznes jarayonlari.

Аннотация. В статье рассматриваются принципы формирования и развития рынка социальных услуг в Республике Узбекистан в условиях социально-экономической трансформации и цифровизации. Особое внимание уделяется роли государства в регулировании и поддержке социальных услуг, а также механизмам интеграции социального туризма как важного элемента социальной политики. Проанализированы нормативно-правовые основы развития социальной сферы, включая стратегические документы и международные декларации. На основе анализа зарубежного и отечественного опыта обоснована социально-экономическая значимость социальных услуг для повышения качества жизни населения, социальной интеграции уязвимых групп и устойчивого развития экономики. В статье показано, что развитие рынка социальных услуг способствует снижению социальной нагрузки на государство, оптимизации бюджетных расходов и формированию инклюзивной модели экономического роста.

Ключевые слова: социальные услуги, рынок социальных услуг, социальная экономика, социальный туризм, государственная социальная политика, цифровизация, устойчивое развитие, Узбекистан.

Abstract. The article examines the principles and development of the social services market in the Republic of Uzbekistan under conditions of socio-economic transformation and digitalization. Special attention is paid to the role of the state in regulating and supporting social services, as well as to the integration of social tourism as an essential component of social policy. The regulatory and legal framework governing the development of the social sector, including strategic documents and international declarations, is analyzed. Based on the study of international and domestic experience, the socio-economic importance of social services in improving quality of life, enhancing social inclusion of vulnerable groups,

and ensuring sustainable economic development is substantiated. The findings demonstrate that the development of the social services market contributes to reducing the social burden on the state, optimizing public expenditures, and forming an inclusive model of economic growth.

Keywords: social services, social services market, social economy, social tourism, state social policy, digitalization, sustainable development, Uzbekistan.

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirish masalasi davlatning ijtimoiy siyosati, aholining turmush sifati va inson kapitalini qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalish raqamli transformatsiya sharoitida yanada dolzarb tus olmoqda. Xizmatlar sohasidagi modernizatsiya endilikda faqat iqtisodiy o‘sish omili emas, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, teng imkoniyatlar va himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlarning bozor tamoyillari asosida shakllanishi bilan birga, davlatning maqsadli tartibga solish funksiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishda strategik asoslardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022 yildagi UP-175-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi”ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu hujjat ijtimoiy xizmatlarni tizimli rivojlantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni manzillilik asosida kuchaytirish hamda kam ta’minlangan va himoyasiz qatlamlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual poydevorini belgilaydi.

Ijtimoiy xizmatlar bozorining muhim segmentlaridan biri sifatida ijtimoiy turizm alohida e’tiborga loyiq. Ijtimoiy turizm tushunchasi 1980-yil Manila Jahon turizmi deklaratsiyasida kam ta’minlangan qatlamlarning dam olish huquqini ta’minlash g‘oyasi bilan bog‘langan. Keyinchalik 1996-yilda qabul qilingan Monreal Deklaratsiyasi ijtimoiy turizmni faqat foyda olishga emas, balki turizm xizmatlarini ommaviy va adolatli taqdim etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi. O‘zbekistonda ham “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunda ijtimoiy turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, qariyalar, nogironlar va kam ta’minlangan qatlamlar uchun turizm va ekskursiyalarni tashkil etish hamda moliyalashtirish manbalari masalasi yoritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ijtimoiy xizmatlar bozori va uning rivojlanish tamoyillari masalasi so‘nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tadqiqotlar

doirasida keng o‘rganilmoqda. Xususan, ijtimoiy xizmatlar bozorini shakllantirish davlatning ijtimoiy siyosati, aholi turmush sifati va barqaror iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Jahon ilmiy adabiyotlarida ijtimoiy xizmatlar bozori nafaqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy integratsiya, teng imkoniyatlar va inson kapitalini rivojlantirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro tashkilotlar hujjatlarida ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi jamiyatning eng himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiruvchi omil sifatida baholanadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlarida ijtimoiy xizmatlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasi sifatida e’tirof etiladi. Manila Jahon turizmi deklaratsiyasida ijtimoiy turizm tushunchasi kam ta’minlangan aholi qatlamlarining dam olish huquqini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy vazifa sifatida yoritilgan bo‘lib, bu ijtimoiy xizmatlar bozorining ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini asoslaydi.

Yevropa tadqiqotchilari ijtimoiy turizm va ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda davlat va nodavlat sektor hamkorligining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Xususan, V.A. Kvartalnov o‘z ishlarida turizm bozorini faqat iqtisodiy foyda manbai sifatida emas, balki “ezgu ishlar bozori” sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, ijtimoiy xizmatlardan olinadigan foyda ko‘pincha bilvosita shaklda namoyon bo‘lib, bu sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va aholi bandligini oshirish orqali namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi xorijiy empirik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Jumladan, L.I. Donskova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy turizmning keksalar sog‘lig‘i, ularning jamiyatga moslashuvi va hayotdan qoniqish darajasiga ijobiy ta’siri qayd etiladi. Shuningdek, Georgie Garcés Ferrer, Mirela Ferry Sanz va Estrella Dura Ferrandiz tomonidan sog‘lom qarish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda turizm faoliyatida ishtirok etuvchi keksalar jismoniy va kognitiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqa guruhlarga nisbatan yuqori natijalarga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu natijalar ijtimoiy xizmatlar bozorining sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni kamaytirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yevropa amaliyotida ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda Calypso loyihasi muhim tajriba sifatida ko‘riladi. Mazkur loyiha ijtimoiy turizm orqali qariyalar, yoshlar, nogironlar va kam ta’minlangan oilalarni turizm jarayonlariga jalb

qilishni maqsad qilgan bo‘lib, u iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qilgan. Ilmiy manbalarda ushbu loyiha mavsumiylik muammosini yumshatish, hududiy bandlikni qo‘llab-quvvatlash va madaniy almashinuvni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida baholanadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ijtimoiy xizmatlar bozorining raqamli transformatsiyasi masalasiga e’tibor kuchayib bormoqda. Xususan, Usmankhodzhaeva S.M. tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining transformatsiyasi, biznes jarayonlarini optimallashtirish va raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish masalalari yoritilgan. Muallif ijtimoiy xizmatlar bozorida raqamlashtirish shaffoflikni oshirish, manzilli yordamni ta’minlash va xizmatlar samaradorligini kuchaytiruvchi omil ekanini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirish masalasida hali ham ayrim metodologik va institutsional bo‘shliqlar mavjud. Xususan, ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash, davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarini keng joriy etish va raqamli platformalar asosida ijtimoiy xizmatlarni boshqarish masalalari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Ushbu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini oshiradi va ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning yangi konseptual yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolaning asosiy qismiga o’tishdan oldin FinTech tushunchasi haqida bir qancha kitoblar hamda maqolalarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilganligini ta’kidlab o’tish lozim. Xususan, Zhou (2022) esa sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va blokcheyn kabi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan mamlakatlar bosqichma-bosqich raqamli iqtisodiyot davriga kirib kelayotganini ta’kidladi. Daniela Gabor o’z "Financial Technology and the Future of Finance" (2020) maqolasida fintechning iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga ta'siri, shu jumladan, global moliya bozorlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar va qiyinchiliklar o'rganiladi. Gabor, fintechning iqtisodiy o'sishga va moliya siyosatiga ta'sirini tahlil qiladi. Rossiyalik iqtisodchi Yeshtokin (2021) o’zining “Российский финтех в национальной финансовой системе: защитник интересов или скрытая угроза?” (Экономика, предпринимательство и право) nomli maqolasida FinTech kelib chiqishi juda qadimlarga borib taqalishi va uning ilk ajdodlarini shu maqoladagi Fintechning moliyaviy bozorning mustaqil qatnashuvchisi sifatida shakllanish bosqichlarining xronologik tavsifida keltirgan. Bunda ilk FinTech ajdodini molliyaviy aktivlar egalari o’z buyruqlarini va ko’rsatmalarini o’zlari ishongan shaxslar yoki boshqaruvchilariga yetkazish vositasi bo’lgan qog’oz deb ko’rsatiladi. Shuningdek, mahalliy iqtisodchilardan Mahmudova (2022) hammualliflikda 2022-yil chop etilgan “O‘zbekistonda moliyaviy texnologik korxonalarning rivojlanishi va istiqbollari” nomli maqolada FinTech to’g’risida fikrlar yuritilib unga ta’rif berib o’tilgan. Maxmudova va bosh.lar (2023) tomonidan hammualliflikda tayyorlangan “Industriya 4.0” o’quv qo’llanmada ham bir qator fikrlar bildirib atamaga ta’rif ham keltirilgan (Kamola, 2024). Bu kitoblar va maqolalar FinTech sohasining turli jihatlarini o'rganishga, uning iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba moliyaviy texnologiyalarni qo‘llashning turli usullari va muvaffaqiyatli strategiyalarini namoyish etadi. AQSH, Yevropa va Osiyo kabi mintaqalarda moliyaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi banklarning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir regionning o‘ziga xos iqtisodiy, texnologik va qonuniy


xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular FinTech texnologiyalarining muvaffaqiyatli integratsiyasi va rivojlanishiga ta’sir qiladi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqot tijorat banklari faoliyatida moliyaviy texnologiyalarni (FinTech) qo‘llashning xalqaro tajribasini aniqlash va umumlashtirishga qaratilgan bo‘lib, birinchi navbatda ilmiy-adabiy manbalar va institutsional hisobotlar asosida kontent tahlil (content analysis) usuli qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida FinTech yo‘nalishlari (bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, Big Data, biometrika, blokcheyn, aqlli shartnomalar, kriptografiya va robotlashtirish) bo‘yicha nazariy yondashuvlar ajratilib, ularning bank qiymat zanjiri (mijoz jalb etish–skoring–tranzaksiya–risk nazorati–xizmat ko‘rsatish)ga ta’siri mantiqiy-kontseptual model yordamida tizimlashtirildi. Shu orqali FinTechning bank xizmatlari samaradorligi, xavfsizlik va mijoz tajribasiga ta’sir mexanizmlari “texnologiya–jarayon–natija” bog‘lanishida izohlandi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida qiyosiy tahlil (comparative analysis) metodi asosida turli mintaqalardagi bank amaliyotlari taqqoslandi. Xususan, AQSH, Yevropa va Osiyo bozorlari misolida FinTech yechimlarining joriy etilish motivlari (raqobat, regulyativ bosim, xarajatlarni qisqartirish, masofaviy xizmatlar talabi), qo‘llash sohalari (fraud detection, kredit skoring, robo-advising, filiallarni optimallashtirish) hamda natijaviy samaralari o‘zaro solishtirildi. Qiyosiy yondashuv FinTech integratsiyasining “yadro bank tizimi”ga ta’siri va banklarning operatsion transformatsiyasi (RPA, AI-monitoring, smart-kontraktlar) bo‘yicha umumiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik qismi kvantitativ tavsifiy tahlil (descriptive quantitative analysis) tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Maqolada 2024–2025 yillarda FinTechning mamlakatlar bozorlariga kirib kelishi bo‘yicha foiz ko‘rsatkichlari va 2018–2021 yillarda neobanklar soni dinamikasi kabi ma’lumotlar strukturaviy tahlil qilinib, o‘sish trendi va omillari mantiqiy izohlandi. Shuningdek, banklarda AI qo‘llanilishining yo‘nalishlari bo‘yicha jadval (front-ofis, operatsiyalarni tekshirish va qayta ishlash, operatsion hisob, umumiy) “funksiya–instrument–natija” mezonida tasniflanib, har bir texnologiyaning bank xizmatlari sifatiga ta’siri konseptual baholandi. Shu metodologik yondashuv yakunda FinTechning xalqaro tajribasi asosida banklar uchun amaliy xulosalar chiqarish va kelgusi tadqiqotlar uchun analitik asos yaratishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Moliyaviy texnologiyalar raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi hafaqat moliyada, balkim mamlakatlarning butun bir iqtisodiyotini ishg‘ol qilib bormoqda. Ushbu jarayonni, ya’ni FinTechning mamlakatlar bozorlariga kirib borishini raqamlar orqali ifodalash orqali yaqqol ko‘rish mumkin.



1-rasm. 20248 va 20259 yillarda FinTechning mamlakatlar bozorlariga kirib kelishi

FinTechning mamlakatlar bozorlariga kirib kelishi 2024 yilda 1-o‘rinda Xitoy (69%), 2-o‘rinda Hindiston (52%) va 3-o‘rinda Rossiya (43%) egallagan edi. 2.1rasmda ko‘rinib turibdiki, 2025 yilga kelib ham birinchi uchlik o‘z egallab turgan joylarini saqlab qolishgan. Biroq FinTechning mamlakatga kirib kelish foizlari o‘zgargan: Xitoyda 18%ga, Hindistonda 35 %ga, Rossiyada esa 39 %ga o‘sish kuzatiladi. Shunday qilib, 2024 yili FinTechning mamlakatlar bozorlarini egallab borishi o‘rtacha 33 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2025 yilga kelib 64 %ni, ya’ni 31 %ga o‘sishni tashkil qilgan. Bu shundan dalolat beradiki, mamlakatlar aholisi orasida yangi moliyaviy texnologiyalarga ishonch bildirayotganlar soni oshib borayotganligidan va albatta, undan foydalanish ko‘rsatkichlari ham o‘z navbatida oshib bormoqda.

So‘nggi to‘rt yil ichida FinTech sanoatini qabul qilish darajasi eksponensial ravishda o‘sdi. 2025 yil oxiriga kelib iste‘molchilarning 64 foizi ikki yoki undan ortiq FinTech xizmatlaridan foydalanadi. Raqamli kanallardagi xizmatlarga talab ortib

borayotgani ko‘plab banklar uchun texnologik innovatsiyalarni joriy etish va o‘z mahsulotlarini rivojlantirish uchun asosiy omil bo‘lmoqda.

Covid-19 pandemiyasi sharoitida masofaviy yordam ko‘rsatish tendentsiyasi paydo bo‘lgan edi va o‘shandan beri pasaymagan. Aksincha, mijozlarni yangi raqamli xizmatlarga o‘tishga undash uchun banklar 2025-yilda “jismoniy” filiallar tarmog‘ini qisqartirishni davom ettirdilar. Bu, ayniqsa, xizmatlarni raqamli relslarga tezda o‘tkazishga qodir bo‘lgan yirik bozor ishtirokchilari uchun to‘g‘ri keladi.

8 EY: в России растет популярность fintech-решений (if24.ru)

9 Global FinTech Adoption Index 2025, 7-b. (ey-global-fintech-adoption-index.pdf)

Misol uchun, Ispaniyada so‘nggi 18 oy ichida bir yarim mingga yaqin, Buyuk Britaniyada esa besh yil davomida eng yirik banklarning deyarli 5,5 ming filiali yopilgan. Rossiya bu tendentsiyadan umuman chetda emas: faqat Sberbank 2024 yilda 800 dan ortiq filiallarini yopdi.

Bugungi kunga kelib banklarda FinTechdan asosan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanlmoqda.

1)Bulutli texnologiyalar. Ushbu texnologiyalardan foydalanish banklarga hisoblash quvvati va resurslarini olish imkonini beradi. Banklar ko‘pincha biznes yuritishning buxgalteriya hisobi va operatsion faoliyati kabi muhim nuqtalarda xavflarni boshqarish, axborot xavfsizligi ta’minlashda bulutli texnologiyalardan foydalanadilar. Bugungi kunga kelib bulutli texnologiyalardan foydalangan holda virtual banklarni yaratish holatlari ham uchramoqda. Masalan, Singapurlik DBS Bank Hindistonda DigiBankni yaratgan bo‘lib, ushbu bank faqat mobil bank sifatida mavjuddir.

2) Sun’iy intellekt (AI) va mashinani o‘rganish (ML). Ushbu texnologiya qarorlarni qabul qilish algoritmlarni qurishda neyron tarmoqlardan foydalanishga asoslangan. Banklar va FinTech kompaniyalari mijozlarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish va mijozlar bilan individual muloqot qilish maqsadida mijozlar ma’lumotlarini tahlil qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanmoqda. Bundan tashqari SI va mashinani o‘rganish shubhali tranzaktsiyalar va potentsial tahdidlarni aniqlash orqali firibgarlikka qarshi kurashda yordam beradi.

Sber mijoz ma’lumotlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan moliyaviy takliflarni yaxshilash uchun AIdan foydalanadi. Tinkoff mijozlarning moliyaviy

xatti-harakatlarini bashorat qilish va firibgarlikka qarshi kurashish uchun mashinani o‘rganishdan foydalanadi.

Bu yerda robo-edvayzingni ham alohida aytib o‘tish kerak. Ushbu xizmat turi bank mijoziga foydalanuvchi tomonidan belgilangan parametrlarga asoslangan holda investitsiya portfelini yig‘ishga yordam beradi. Keyingi aktivlarni boshqaruvi avtomatik ravishda sun’iy intellekt yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, bunday xizmat turlari kelajakda vaziyatdan kelib chiqqan holda mijozga shaxsiy moliya tizimini qurishda yordam beradi va qarorlar qabul qilishda SI javobgar bo‘ladi. Bundan tashqari, chatbotlar va ovozli yordamchilarda ham sun’iy intellektdan foydalaniladi. U so‘rovni qayta ishlaydi va javob yoki yechim hosil qiladi. Shuningdek, qo‘llab-quvvatlash xizmati SIdan foydalanmaganda shunday samarali ishlay olmas edi. Quyidagi jadvalda moliyaviy tashkilotlarda, shu jumladan banklarda sun’iy intellektning qo‘llanilish doirasi, sohalari va sun’iy intellektning qaysi sohada qanday turlaridan foydalanilayotgani keltirilgan.

3) Katta ma’lumotlar (Big Data). Juda ulkan miqdordagi ma’lumotlar ushbu toifa tarkibiga kiradi va ular hechqanday ajratilmagan, aralash bo‘ladi. Ilgari bunday ma’lumotlardan kam foydalanilar edi, chunki ularni ularni tahlil qilishga, ular orasidan keraklilarini ajratib olishga juda katta quvvat, vaqt va albatta harajat sarflanar edi. Endilikda esa ushbu jarayon SI yordamida juda onsonlashdi. Bunga misol qilib, COVID-19 pandemiyasi davrida Indoneziya banki Bank Mandiri Amerika kompaniyasi – Enterprise Cloudera2 bilan birgalikda Enterprise Information & Decision Platform katta ma’lumotlar platformasini yaratishini aytish mumkin10. Uning yordami bilan masofadan turib banklar o‘z filiallarining likvidligi va kundalik operatsiyalarini tahlil qilishi va shu asnosida ulardan qay birini yopish kerakligi to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

1-jadval

Moliyaviy tashkilotlarda sun’iy intellektning qo‘llanilishi11

Qo‘llash doirasi	Qo‘llash sohasi	Sun’iy intellekt (AI) turi
Birinchi yo‘nalish: Front-ofis	Chat-botlar	Tabiiy tilni qayta ishlash asosidagi SI-algoritmlari
	Marketingning “aqlli” vositalari	Shaxsiylashtirilgan takliflarni yaratish uchun chuqur o‘rganish elementlariga ega SI algoritmlari

	Algotrading, investitsion konsalting va aktivlarni baholash	Ko‘rsatkichlarni baholash uchun regressiya modellariga asoslangan SI algoritmlari
Ikkinchi yo‘nalish: operatsiyalarni tekshirish va qayta ishlash	Skoring	Mijozlar uchun ham mo‘ljallangan SI algoritmlariga asoslangan kredit reytingi aniqlash uchun skoring ilovalari
	Tranzaktsiyalarni tasdiqlash, hujjatlarni qayta ishlash	Tezkor qaror qabul qilish uchun to‘lov ma'lumotlari va risklarni boshqarish tizimi bilan bog‘langan SI algoritmlari
Uchinchi yo‘nalish: operatsion hisob	Tranzaksiyalar monitoringi	Shubhali tranzaktsiyalarni real vaqtda kuzatib borishga qodir bo‘lgan va foydalanuvchilarni ogohlantiradigan SI algoritmlari
Umumiy	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, optimallashtirish	Biznes jarayonlari uchun end-to-end xizmat ko‘rsatish funksiyasi

4) Biometrika. Barmoq izlari, ko‘z qorachig‘i, yuzi, ovozi va shu kabi faqat bir shaxsga xos bo‘lgan biometrik ma’lumotlarga asoslanib shaxsni aniqlash imkonini beruvchi texnologiya bo‘lib, banklar tomonidan masofaviy xizmatlar (mobil ilovalarda tranzaktsiyalarni tasdiqlash, hisob raqam ochish, kredit berish, foydalanuvchi identifikatsiyasi)ni ta’minlash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari banklar olislardan ham mijozlarni o‘zlariga jalb qilishlari mumkin, ya’ni bankka tashrif buyurmay turib bank mijoziga aylanish, hisob raqam ochish, plastik kartalar buyurtma qilish mumkin. Bu, ayniqsa, chekka joylarda yashovchilarga, nogironlarga, imkoniyti cheklanganlarga qulaylik tug‘diradi.

Shuningdek, biometriyadan havfsizlikni ta’minlashda foydalaniladi. Parollar, PIN-kodlar yoki OTPlar kabi bilimga asoslangan autentifikatsiya usullari osongina

10 Буханов Д. В. ТЕНДЕНЦИИ ПРИМЕНЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 503-510.

11 Применение ИИ на финаннсовом рынке. Доклад для общественных консультаций. Москва-2023. 13-стр. (Consultation_Paper_03112023.pdf (cbr.ru))

unutiladi, o‘g‘irlanadi yoki buzilgan. Microsoft korporatsiyasining xabar berishicha, 44 million foydalanuvchi akkauntlari zaif parollar tufayli bloklangan. Googlening ta’kidlashicha, ko‘pchilik foydalanuvchilar parollarni bir nechta saytlarda

qayta ishlatib, ularni himoyasiz qoldiradi. Shuning uchun bank hisobini biometrik tekshirish moliya sanoati xavfsizlik platformalarining tobora ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Biometrik ma’lumotlar bankomat, onlayn tranzaktsiyalar uchun kuchli autentifikatsiyani ta’minlaydi. Bu mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi va bank muassasalarining brend obro‘sini oshiradi. Visa tomonidan e’lon qilingan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, iste’molchilarning 65 foizi o‘zlarining to‘lov ma’lumotlarini himoya qilish uchun bank ishida biometrik ma’lumotlardan foydalanishni qulayroq his qiladilar, bu esa hozircha an'anaviy xavfsizlik usullarini butunlay yo‘q qiladi12. Misol uchun, VTB tranzaksiya chegaralarini oshiradi, Post Bank qalbaki yoki yo‘qolganini aniqlash uchun biometrik ma’lumotlardan foydalanadi. 2019-yilda bank biometrik ma’lumotlardan foydalangan holda tizimlarga kirish uchun boshqa shaxslarning hisob raqamlaridan foydalanishga 1,2 mingdan ortiq urinishlarning va mijozning xabarisiz 500 million rubldan ortiq summadagi 2 mingdan ortiq shubhali tranzaktsiyalarning oldini oldi. Shuningdek, o‘tgan yil davomida bankka 100ga yaqin taqdim qilingan pasportlar qalbaki ekanligi aniqlangan13

.

To‘lovlar uchun karta o‘rniga biometrikadan ham foydalanish mumkin. Bioacquiring sizga yuzingizni skanerlash orqali xaridlar uchun to‘lash imkonini beradi. Sberbank, Russian Standard va VTB shunga o‘xshash xizmatga ega.

5) Blokcheyn. Har bir tranzaktsiya blokcheinda yozib boriladi va uni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Banklarda ushbu texnologiyadan samaradorlikni oshirish, ishlarni va tekshiruvlarni oz vaqt sarflab bajarish uchun quyidagi sohalarda foydalaniladi14:

- aqlli shartnomalar yordamida qarz oluvchining risklarini boshqarish asosida utal vaqt rejimida kreditlash;
- mulkni baholash va tekshirish;
- xususiy moliyaviy instrumentlar ishlab chiqish;
- virtual portfellar, pul mablag‘lari va likvidlikni boshqarish, shuningdek, valyuta va pul o‘tkazmalarni boshqarish;
- kontragentning riskini nazorat qilish va audit qilish;
- opertsion risklarini kamaytirish;
- normativlarga muvofiqligi.

2023-yil 26-iyulda Commerzbank Contour xalqaro savdoni moliyalashtirish platformasida real vaqt rejimida operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan birinchi nemis banki bo‘lganini e’lon qildi. 2023-yil iyun oyi o‘rtalarida JPMorgan investitsiya banki blokcheyn yordamida Hindistonda banklararo dollar

12 https://appinventiv.com/blog/biometrics-technology-in-digital-banking/

13 https://trends.rbc.ru/trends/industry/5fd3ac6a9a79475333bfcb4f

14 Проняева А. Ю. Использование технологии блокчейн в банковской сфере: Международный опыт и Российская практика //Хроноэкономика. – 2019. – №. 7 (20). – С. 89-93.

operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha pilot loyiha boshlanganini e’lon qildi. Pilot loyiha doirasida Hindistonning oltita banki Gujarat Xalqaro Moliyaviy Texnologiyalar Siti (GIFT Siti)dagi JPMorgan filiali bilan zudlik bilan hisob-kitob qilish (24x7) imkonini beruvchi blokcheyn hisoblarini ochadi15

.

2021-yil noyabr oyi boshida Juniper Research tahlilchilari transchegaraviy hisob-kitoblar uchun blokcheynni joriy etish banklar uchun tobora sezilarli xarajatlarni tejashga olib kelishi haqida tadqiqot e’lon qildi: 2021-yildagi 301 million dollardan 2030-yilda 10 milliard dollargacha16

.

6) Aqlli shartnomalar. Bu texnologiya muayyan shartlarni o‘z ichiga olgan elektron algoritm. U taqsimlangan registrlar tizimida ishlaydi, ya’ni markazlashtirilmagan holda saqlanadi, bu esa tranzaktsiyaning barcha ishtirokchilari uchun unga kirishni ta’minlaydi va bajarish shartlarini bir tomonlama yuklashdan himoya qiladi. Berilgan algoritm bank tizimiga ulangan va ma’lumotlarni olish uchun tashqi tizimlar bilan bog‘langan. Tashqi ma’lumotlardan foydalanish, algoritm belgilangan shartlarga muvofiq tekshiriladi, agar shartlar bajarilsa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi va muayyan harakatlar amalga oshiriladi. Xususan, banklar savdoni moliyalashtirish, akkreditivlar, kreditlar bilan bog‘liq shartnomalarni amalga oshirishda ko‘pincha smartdan foydalanadilar. Aqlli shartnomalar vositachilar ishtirokisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul, aktsiyalar, mulk va boshqa aktivlarni xavfsiz almashish imkonini beradi. 2013 yildan boshlab aqlli shartnomalar Ethereum loyihasi yaratilgandan so‘ng amaliyotda keng qo‘llanila boshlandi.

7) Kriptografiya. U zamonaviy bank ishida muhim rol o‘ynaydi, moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta‘minlaydi va maxfiy ma‘lumotlarni himoya qiladi. U ma’lumotlarni shifrlash, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish va ma’lumotlar

yaxlitligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Amaliy kriptografiyaning rivojlanishi bank ilovalari va operatsiyalarini himoya qilishning yangi usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Kriptografik protokollar nazariyasi asoslari va ularni moliyaviy faoliyatda amaliy qo‘llash axborot xavfsizligini ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega. Kriptografiya bank sohasida ma'lumotlarni himoya qilishning ajralmas qismidir.

8) Robotlashtirish. Robotik jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) dasturiy ta’minot robotlari va sun’y intellekt yordamida biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdir. Grafik interfeys bilan o‘zaro ta’sir natijasida robot insonlarning harakatlarini bajarishni, takrorlashni boshlaydi. An’anaviy avtomatlashtirilgan tizimlarda ishlab chiquvchi biron vazifani avtomatlashtirish uchun harakatlar ro‘yxatini tuzib chiqadi. RPA esa foydalanuvchi tomonidan vazifani qo‘lda bajarish jarayonda amalga oshirilayotgan harakatlarni kuzatish natijasida ro‘yxatni mustaqil ravishda tuzadi.

15 Блокчейн в банках (tadviser.ru)

16 Juniper Research: Blockchain to Facilitate $10 Billion Savings Globally in Cross-border Payments, as Operational Efficiencies Take Effect - FinTech Futures: Fintech news

Bunday tizimlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishiga misol qilib Singapur banki OCBC keltirish mumkin. Ushbu bank ipoteka kreditlarini qayta baholash uchun vaqtni 45 marta, ya’ni bir daqiqagacha qisqartirdi. Yaponiya moliyaviy kompaniyasi ishchilar qo‘l mehnatini 400 ming soatga qisqartirgan17

.

XULOSA. Payments Industry Intelligence portali ma‘lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda dunyoda 60 ta neobank mavjud edi. 2021 yil boshida raqamli muassasalar soni 319 taga yetdi. Faqat 2019-2020 yillarda 144 ta yangi neobank ochildi: AQShda 24 ta, Yevropa Ittifoqida 100 ga yaqin, Xitoyda 10 ta, Rossiya Federatsiyasida 3 ta, Qozog‘istonda 1 ta raqamli bank O‘zbekistonda 2 ta raqamli bank – birinchi mahalliy tijorat raqamli banki Anorbank, shuningdek gruzin raqamli TBC bankining filiali.

Ushbu tizimlar tezkor javobni o‘rnatish, so‘rovlar va ularga javoblar yaratish, mijozlar so‘rovlarini tasniflash, qo‘llab-quvvatlash xizmati va ularga standart javoblarni taqdim etish, yangi xodimlarga tizimga kirishni ta’minlash va ishdan bo‘shatilgan xodimlarga tizimga kirishni blokirovka qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, to‘lovlarni boshqarish bilan bog‘liq (masalan, ma’lumotlarni uzatish), qog‘oz hujjatlar, xodimlar uchun ish haqi reyestrini yaratish, to‘lov

hujjatlarini shakllantirish va jo‘natish, debitorlik qarzlarini nazorat qilish uchun ishlatiladi va ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.

Justin Trificana (What is fintech? 6 main types of fintech and how they work | Plaid, 2023) What is fintech? 6 main types of fintech and how they work | Plaid

2. Буханов Д. В. Тенденции применения финансовых технологий в банковской деятельности //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 503-510.

3.

Проняева А. Ю. Использование технологии блокчейн в банковской сфере: Международный опыт и Российская практика //Хроноэкономика. – 2019. – №. 7 (20). – С. 89-93.

4.

Global FinTech Adoption Index 2019, 7-b. (ey-global-fintech-adoption-index.pdf)

5. Juniper Research: Blockchain to Facilitate $10 Billion Savings Globally in Cross-border Payments, as Operational Efficiencies Take Effect - FinTech Futures: Fintech news.

6. EY: в России Применение ИИ на финаннсовом рынке. Доклад для общественных консультаций. Москва-2023. 13-стр. (Consultation_Paper_03112023.pdf (cbr.ru))растет популярность fintech-решений

17 Буханов Д. В. Тенденции примененния финансовых технологий в банковской деятельности //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 503-510.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KREDITLASH VA RAQAMLASHTIRISH

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistanti,

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich

Tel:+998998156860

e-mail:tajiddinov84@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0879-0975

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy texnologiyalar (FinTech) yordamida kreditlash va raqamlashtirish jarayonlarining nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya-bank tizimining transformatsiyasi, raqamli bank xizmatlari, mobil to‘lovlar, ochiq bank (Open Banking), P2P kreditlash va InsurTech texnologiyalarining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirayotgani asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli moliyaviy xizmatlar tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlash jarayonlarini soddalashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt, Big Data va raqamli skoring tizimlari kredit risklarini aniq baholash imkonini berib, banklar va moliyaviy institutlarning operatsion barqarorligini mustahkamlamoqda. Maqolada FinTech texnologiyalarining tadbirkorlik muhitini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati va ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, mobil to‘lovlar, startaplarni qo‘llab-quvvatlash raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, mikromoliya va kreditlash, barqaror rivojlanish, raqamli bank, kiberxavfsizlik, operatsion chidamlilik, sun’iy intellect

Annotation: This article examines the role of financial technologies in the digitalization and credit support of entrepreneurial activity in Uzbekistan. Special attention is paid to the institutional framework, government support mechanisms, and the evolution of digital banking models, including neobanks and fully digital banks. The study highlights the growing importance of digital competencies, cybersecurity, artificial intelligence, and big data analytics in assessing credit risks and improving financial decision-making. The findings demonstrate that FinTech is not merely a temporary trend but a structural transformation factor that strengthens sustainable economic development and enhances the competitiveness of entrepreneurial entities within the national and global financial systems.

This article examines the role of financial technologies in the digitalization and credit support of entrepreneurial activity in Uzbekistan. Special attention is paid to the institutional framework, government support mechanisms, and the evolution of digital banking models, including neobanks and fully digital banks. The study highlights the growing importance of digital competencies, cybersecurity, artificial intelligence, and

big data analytics in assessing credit risks and improving financial decision-making. The findings demonstrate that FinTech is not merely a temporary trend but a structural transformation factor that strengthens sustainable economic development and enhances the competitiveness of entrepreneurial entities within the national and global financial systems.

Keywords: digitalization, financial technologies, FinTech, entrepreneurship, digital economy, mobile payments, digital banking, lending, microfinance, startups, artificial intelligence, big data, cybersecurity, open banking, P2P lending, innovation, financial inclusion, operational resilience, sustainable development, neobanks, digital transformation, credit systems, banking sector, Uzbekistan.

Аннотация: В статье исследуются теоретические и практические аспекты кредитования и цифровизации предпринимательской деятельности с использованием финансовых технологий (FinTech). В условиях реализации стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» обоснована роль цифровой трансформации банковско-финансовой системы, внедрения цифрового банкинга, мобильных платежей, открытого банкинга (Open Banking), P2Pкредитования и InsurTech-решений в расширении доступа предпринимателей к финансовым ресурсам.

Результаты исследования показывают, что цифровые финансовые услуги способствуют упрощению кредитных процедур, снижению транзакционных издержек и повышению уровня финансовой инклюзии. Использование искусственного интеллекта, технологий Big Data и цифровых скоринговых моделей позволяет более точно оценивать кредитные риски и укреплять операционную устойчивость финансовых институтов. В статье сделан вывод о стратегической значимости FinTech-технологий для развития предпринимательства и обеспечения устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: оцифровка, мобильные платежи, поддержка стартапов Цифровая экономика, банковская система, Микрофинансирование и кредитование, устойчивое развитие, цифровой банкинг, кибербезопасность, операционная устойчивость, искусственный интеллект

KIRISH. Raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas va muhim qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar, internet

va mobil ilovalar orqali moliyaviy xizmatlarni oson va qulay tarzda taqdim etish imkonini yaratib, butun dunyo bo‘ylab moliya tizimlarini o‘zgartirib bormoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bank-moliya sektorining barcha jabhalarida jadal o‘z o‘rnini egallamoqda. Bank-moliya sektorining rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridan biri sifatida raqamlashtirish jarayoni milliy iqtisodiyotning rivojlanish chegaralarini belgilovchi indikatorga aylanmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni barcha tarmoqlar va sohalarda jadal qamrab olishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston -2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining ijrosi doirasida tijorat banklarida “masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi” ni yakunlash rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta‘sirini o‘lchash bilan bog’liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov, K.X.Abdurahmonov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, O.Umarov va mamlakatimizning boshqa ko’plab yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Yu. Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Global miqyosda mobil ilovalarni yaratish moliyaviy xizmatlar bozorida 2016 yildan 2022 yilgacha 14 foizga o‘sishi kutilmoqda. Hozirgi kunda internet butunlay insoniyat hayotidan ajpalmas bo‘lakka aylanib qolmoqda. Shuning uchun banklar keng ko‘lamli mijozlariga bank filiallarini ochmasdan masofadan onlayn bank xizmatlarini ko`rsatib kelmoqda. Bank innovatsiyalarini tasniflashga o‘tishdan oldin bank operatsiyalari, xizmatlari va mahsulotlari nima ekanligini aniqlash kerak. Bank faoliyati ko‘p sonli operatsiyalarni o‘z ichiga oladi, ularning natijasi mahsulot yoki xizmatdir.

METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot metodologiyasi raqamli moliyaviy texnologiyalarning tadbirkorlik faoliyatini kreditlash va raqamlashtirishdagi rolini kompleks baholashga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, FinTech texnologiyalarining nazariy asoslari hamda ularning moliya-bank tizimidagi institutsional o‘rni aniqlab berildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar, milliy rivojlanish strategiyalari va xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari tahlil qilinib, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda raqamli mexanizmlarning ahamiyati baholandi.

Tadqiqotda taqqoslash va guruhlash usullari orqali raqamli bank faoliyatining turli modellari - raqamli bank brendi, raqamli kanallarga ega bank, bankning raqamli filiali va to‘liq raqamli bank modellari tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlarni tizimlashtirish asosida mobil to‘lovlar, mikromoliya va raqamli kreditlash bo‘yicha mavjud tendensiyalar aniqlandi. Shuningdek, kredit risklarini baholashda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari metodologik jihatdan asoslab berildi.

Bundan tashqari, sintez va umumlashtirish usullari orqali FinTech texnologiyalarining tadbirkorlik muhitiga ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri baholandi. O‘zbekistonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan raqamli moliyaviy platformalar misolida amaliy tahlillar o‘tkazildi. Mazkur metodologik yondashuv FinTech’ning tadbirkorlikni rivojlantirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rnini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentabrdagi PQ-306-son qarori ”Kichik biznesni uzluksiz qo’llab quvvatlash” kompleks dasturida 2023 - 2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag’lari hisobidan 6 trillion so’m va xalqaro moliya institutlarining 1.2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag’lari yo’naltiriladi.

Ochiq bank tizimi (Open Banking) – Banklar o‘z API larini ochib, innovatsion moliyaviy xizmatlarning rivojlanishiga va mijozlar uchun yanada qulay ekotizim yaratilishiga yo‘l ochmoqda. InsurTech – Sug‘urta sektori raqamli texnologiyalarni joriy etib, jarayonlarni avtomatlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish tezligi va samaradorligini oshirmoqda. P2P kreditlash – Peer-to-peer kreditlash platformalari an’anaviy banklarni chetlab o‘tib, odamlar o‘rtasida bevosita qarz berish va olish imkoniyatini yaratib, foiz stavkalarini pasaytirishga yordam bermoqda.

O‘zbekistonda FinTech bozori tez sur’atlarda rivojlanmoqda va katta potensialga ega. Raqamli moliyaviy yechimlarga bo‘lgan talab quyidagi omillar bilan oshib boryapti: Raqamlashtirish – banklar va moliyaviy institutlar onlayn banking, mobil ilovalar va raqamli to‘lov tizimlarini joriy etib, yangi FinTech startaplar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Mobil to‘lovlar – yosh avlodning aksariyati tranzaksiyalar uchun smartfonlardan foydalanmoqda. Payme va Click bozorning muhim qismini egallagan bo‘lsa-da, hali ham innovatsion yechimlar uchun imkoniyatlar mavjud.

Startaplarni qo‘llab-quvvatlash – IT Park va boshqa akseleratorlar FinTech startaplarining rivojlanishini rag‘batlantirib, ularni moliyaviy va resurs jihatdan qo‘llab-quvvatlamoqda.

Mikromoliya va kreditlash – Sun’iy intellekt va Big data texnologiyalaridan foydalangan holda kredit “risk”larini yanada aniq baholash va reyting tizimlarini takomillashtirish mumkin.

O‘zbekistonda FinTech sohasida muvaffaqiyatli bo‘lgan bir qancha mahsulotlarning paydo bo‘ldi. Ular kelajakdagi tadbirkorlar va startaplar uchun namuna sifatida xizmat qilmoqda:

Click, Payme, Oson, Paynet va Uzum – mamlakatdagi eng ommabop mobil to‘lov tizimlari bo‘lib, ular foydalanuvchilarga smartfon orqali tovar va xizmatlar uchun tezkor va xavfsiz to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Uzcard va Humo – O‘zbekistonning yetakchi to‘lov tizimlari bo‘lib, ular naqd pulsiz operatsiyalar va ichki pul o‘tkazmalarini ta’minlaydi. Ushbu tizimlar mamlakatning moliyaviy infratuzilmasining asosiy qismini tashkil etadi va innovatsion to‘lov yechimlarini ishlab chiqmoqchi bo‘lgan startaplar uchun muhim tajriba maydoni hisoblanadi

1-jadval

Raqamli bankning to‘rt modeli

Model	**A - raqamli bank brendi**	**B – raqamli kanallarga ega bo‘lgan bank**	**S – bankning raqamli filiali**	**D – to‘liq raqamli bank**
Mahsulotlar, sotish, marketing	Mustaqil	Mustaqil	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas
Kanallar	Ko‘p hollarda ta’sischi bank bilan birgalikda yoki o‘rindoshlikda	Mustaqil	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas
Bek-ofis	Ta’sischi bank bek-ofisidan foydalanadi	Ta’sischi bank bek-ofisidan foydalanadi	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas

Bank ustavi	O‘z bank ustaviga ega emas	O‘z bank ustaviga ega emas	O‘z bank ustaviga ega emas	Mustaqil bank ustaviga ega

MUHOKAMA. Hozirgi paytda dunyo bo‘ylab tadbirkorlar, hatto an’anaviy banklarning o‘zlari ham to‘liq raqamli bank yoki neobanklar tashkil qilishmoqda. Bank Mobile, Number 26, Atom, ZenBanx and NuBank kabilar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu neobanklarning umumlashtirib turuvchi yagona jihati ularning taklif qilayotgan xizmatlari raqamli texnologiyalarga asoslanganligidir.IBM o‘zining Designing a Sustainable Digital Bank (Barqaror raqamli bankni loyihalashtirish) dokladida raqamli bankni 4 modelini ajratib izohlaydi:

1.A model – raqamli bank brendi. An’anaviy banklar rivojlangan va talablari yuqori bo‘lgan mijozlarga moslashishga harakat qilib, yangi mahsulot va takliflar orqali yangicha brendlar ishlab chiqadi. Ushbu brendlarni amalda ishlab turgan bank infrastrukturasiga qo‘llashadi.Bunday banklar sifatida Singarurdagi FRANK bank OCBC va Ispaniyadagi LKXA Caixa Bank ni misol keltirishimiz mumkin.

2.B model – raqamli kanallarga ega bo‘lgan bank. Ushbu banklar A modeldagi banklardan farqli ravishda mavjud bo‘lgan tajribani yaxshilovchi tapmoq yaratishadi. Ular mavjud bank bek-ofis va lisenziyasidan foydalanib, ularning xizmatlarini qulayroq foydalanuvchi intepfeysi orqali qayta sotadilar. Bunday banklarga misol sifatida Aqshda Moven va Possiyada Rocketbankni keltirish mumkin.

3.S model – bankning raqamli filiali. Ushbu model ikki yo‘nalishni jamlashtiradi: raqamli foydalanuvchi tajribasi va yangi biznes jarayonlarni. Ushbu modeldagi banklar amalda alohida tashkilot sifatida ishlaydi, bunday banklardan biri BNP Paribasning Hello Bank raqamli filiali.

4.D model – to‘liq raqamli bank. Bunday banklar mijozlarga barcha mahsulotlarini raqamli texnologiyalar asosida taklif qiladilar. Masalan, Germaniyadagi Fidor Bank. Quyida sanab o‘tilgan to‘rt modelga xos bo‘lgan xususiyatlar keltirilgan. Ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli bankning A, B va S modellari asosiy bankning litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi, faqat D modeli to‘laqonli raqamli bankingni o‘zida ifoda qiladi

Demak, D model banklari to‘liq raqamli bank hisoblanib, mahsulotlarini sotish, marketing xizmatlarini raqamli tarzda ko‘rsatishdan tashqari, mustaqil kanallar, mustaqil bek-ofis hamda mustaqil bank ustaviga ega bo‘ladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishsh mumkinki, haqqoniy raqamli bank asosiy mahsulot va xizmatlarini

raqamli tarzda amalga oshirib, uning mijozlari kundalik bank bilan bog‘liq faoliyatida raqamli kanallardan foydalanishadi. Raqamli bankning infratizimi real vaqt rejimida raqamli hamkorlik uchun mo‘ljallangan va raqamli texnologiyalarning yangi o‘zgarishlariga tez moslashuvchandir.

Zamonaviy sharoitlarda tadbirkorlik kompetensiyasining muhim elementlariga quyidagilar kiritiladi:

korporativ kompetensiyalar korxona qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanib, xodimlarga munosabati, mijozlarga e’tibor, sodiqlik, kasbiy rivojlanish kabilarda namoyon bo‘ladi;

boshqaruv kompetensiyalari strategik fikrlash, yetakchilik, rejalashtirish va tashkil etish kabilarda biznes maqsadlariga erishish uchun zarur hisoblanadi; kasbiy kompetensiyalar tadbirkorlik faoliyati sohasidagi muammolarni hal etish, kutilmagan vaziyatlarda innovatsion fikrlash imkonini beradi; raqamli kompetensiyalar har xil turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional, ijtimoiy, shaxsiy xarakterdagi muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Jahonda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda tadbirkorlik subyektlarning raqamli kompetensiyasining shakllanganligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanrishga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

XULOSA. Aholiga bank xizmatlari ko‘rsatilishi borasida yetarlicha tushuntirishlar berish, banklardagi omonatlar, ulardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek aholining bo‘sh pul mablag‘larini bankga jalb qilib, ushbu mablag‘larni masofadan turib boshqarish imkoniyatlarini ommaviy axborot vositalaridan yanada ko‘proq foydalangan holda targ‘ib qilish aholining banklargabo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

FinTech shunchaki vaqtinchalik trend emas, balki butun moliyaviy sektorni tubdan o‘zgartirayotgan inqilobdir. O‘zbekistondagi tadbirkorlar uchun bu innovatsiyaga boy va tez rivojlanayotgan sohaga kirish imkoniyatidir.

Raqamli moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortib borishi va davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlanish O‘zbekistonni FinTech mahsulotlarini rivojlantirish uchun jozibador bozorga aylantirmoqda. Texnologiyalar oldinga siljishda davom etar ekan, ularning imkoniyatini anglab yetgan tadbirkorlar bozorning yetakchi o‘yinchilariga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14 sentabrdagi PQ-306-son qarori ”Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab quvvatlash” kompleks dasturi.

3.Antunes J., Hadi-Vencheh A., Jamshidi A., Tan Y., and Wanke P. “Bank efficiyency estimation in China: DEA-RENNA approach,” Ann Oper Res, vol.315,no.2,pp.1373–1398,(2022);

4.Ashta A. Biot-Paquyerot G. FinTech evolution: Strategic valuye management issuyes in a fast changing industry // Briyefings in entrepreneurial financye. Volume 27, Issuye 4. July 2018. – 301-311 r.

5.Assaf A., Berger A.N. and others, Doyes efficiyency help banks survive and thrive during financial crises?, Journal of Banking and inancye,106,(2019),pp.445–470;

6.Aduda, J. & Kingoo, N., 2012, ‘The relationship betwyeen electronic banking and financial performancye among commercial banks in Kenya‘, Journal of Financye and Investment Analysis 1(3), 99-118.

7.Aspromourgos T. On the origins of classical economics: distribution and valuye from William Petty to Adam Smith (Routledge, 1995);

8.Abraham Charnes, William W Cooper, and Edwardo Rhodes, ’Measuring the Efficiyency of Decision Making Units’, European Journal of Operational Research, 2.6 (1978), 429–44.

9.Artz, K.W., Norman, P.M., Hatfiyeld, D.E. & Cardinal, L.B., 2010, ‘Alongitudinal study of the impact of R&D, patents, and product innovation on firmperformancye‘, Journal of Product Innovation Management27(5),725-

740.

10.Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining o‘rni // Iqtisodiyot va innovatsiontexnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019